O'zlashtirish natijalari (o'qitish)	<p>“O'zbekistonning eng yangi tarixi” o'quv fanining mazmun-mohiyatini ta'riflay olish;</p> <p>Yangilik kiritishga intilishi;</p> <p>“O'zbekistonning eng yangi tarixi” fanidan olgan bilimlarini ishlab chiqarishda qo'llay olishi;</p> <p>Mustaqil ish va vazifalarni to'liq bajarishi;</p> <p>Taraqqiyotning yangi bosqichida yangi O'zbekiston hukumatining respublikamizda uchinchi renessans poydevorini yaratish borasida amalga oshirayotgan islohotlar strategiyasi mazmuni bilan tanishish;</p> <p>Mustaqil va ijodiy fikrlash, o'z fikrlarini yozma va og'zaki ravon bayon etish malakalarini egallash;</p> <p>Bilimlarni muntazam oshirib, yangilab borishga intilish, o'quv va mehnat faoliyatiga ijodiy, mustaqil yondashish sifatlariga ega bo'lish;</p> <p>O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati va uning mazmun – mohiyati bilan tanishish;</p> <p>xarita ustida ishlay olishi, tarixiy voqealar yuzasidan mustaqil mulohaza yurita olishi, bayon qila olishi, munozara va bahslarda ishtirok eta olishi kerak.</p>
Modul mazmuni	<p>Boy tarixiy o'tmish, xususan, o'zbek davlatchiligiga tarixiy ekskurs uyushtirish, qarama-qarshiliklarga boy ziddiyatli XX asr tarixi mazmun-mohiyatini ochib berish, mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistonda yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat hamda mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hamda boshqa sohalarda amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyatini o'quvchilarga to'liq tushuntirib berish, ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda milliy g'urur va iftixorni shakllantirishdan iborat.</p>
Egallanadigan kompetensiyalar	<p>O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining o'z millati va boshqa millatlarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanish qonuniyatlarini izchil o'rganish bo'yicha kompetensiyalarni shakllantirish</p>
Bilimlar	<ul style="list-style-type: none"> • olamning yagona va yaxlitligini, O'zbekiston uning ajralmas bir qismi ekanligini idrok etish; • O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi haqida bilimlarga ega bo'lish;

	<ul style="list-style-type: none"> • O'zbekiston tanlagan mustaqil rivojlanish yo'li va uning ahamiyati haqida bilimlarga ega bo'lish; • O'zbekistonning xalqaro aloqalari va jahon hamjamiyatidagi o'рни haqida bilimlarga ega bo'lish; • 2017-2021 – yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishni beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi haqida bilimlarga ega bo'lishi; • O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev - yangi O'zbekistonning novator rahbari sifatida olib borayotgan islohotlari haqida bilimlarga ega bo'lishi; • O'zbekiston Pandemiya sharoitida davlatimizning xalq salomatligini asrash borasidagi samarali faoliyati haqida bilimlarga ega bo'lishi kerak.
Ko'nikmalar	<ul style="list-style-type: none"> ○ tarixiy hodisalarni, ularning mohiyati va sabablarini, ○ ahamiyatini baholagan holda tahlil etish hamda umumlashtira olish; ○ tarixiy voqeaning sodir bo'lish sabablari va oqibatlari haqida darslik matni yoki o'qituvchining hikoyasiga asoslangan holda kengaytirilgan reja tuzish; ○ tarixiy voqealarning sabablari va oqibatlarini tahlil qilishda xaritadan foydalanish; ○ ko'rgazmali qurollar, rasmlar va xaritalar orqali shu davrning xarakterli xususiyatlarini ochib berish; ○ jamiyatda va dunyoda kechayotgan jarayonlarga o'zining mustaqil munosabatini bildirish; ○ O'zbekistonning eng yangi tarixi barcha bosqichlarga oid ma'lumotlarni farqlay, davrlashtirish, ulardan ratsional – ilmiy xulosalarni chiqarish ko'nikmalariga ega bo'lish; ○ Tarixiy voqealarni bugungi davr nuqtai nazaridan solishtirish, tahlil qilish orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning yechimi bo'yicha istiqbolli xulosalar chiqarish ko'nikmasiga ega bo'ladi.
O'qitishni tashkiliy shakli	Kunduzgi
Baholash tartibi	Baholash bo'yicha amaldagi tartib asosida
Axborot manbalari	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013. 2. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор. М.А.Рахимов. - Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018. 3. Rasulova N. O'zbekistonning eng yangi tarixi. 1 -qism. - Toshkent, 2021. - 186 bet. 4. O'zbekistonning eng yangi tarixi. R.H.Murtazayeva, A.A.Ermetov, A.A.Odilov. - Toshkent, 2023. <p>Qoshimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. Azizxo'jaev A.A. Chin o'zbek ishi. - Toshkent, 2003. 6. Islomov Z.M. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. - Toshkent: O'zbekiston, 2005. 7. Levitin L. O'zbekiston tub burilish pallasida. - Toshkent:

	<p>O'zbekiston, 2005.</p> <p>8. Usmonov Q. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. - Toshkent: Moliya, 2003.</p> <p>9. O'lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. - Toshkent: Sharq, 2006.</p> <p>10. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. Mas'ul muharrir R.H.Murtazaeva. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.</p> <p>11. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. Mas'ul muharrirlar: R.Abdullaev, Q.Rajabov, M.Rahimov. - Toshkent: O'zbekiston, 2019.</p> <p>12. Murtazaeva R.H. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2019.</p> <p>13. Yunusova X.E. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma'naviy jarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). - Toshkent: Abu matbuot-konsalt, 2009.</p> <p>14. Qoraqalpog'iston tarixi (1917-1994 yy.). - Nukus, 1995.</p> <p>15. G'afforov Ya. Xalqaro tashkilotlar hamkorligi. 1-2-qism. - Toshkent, 2021.</p> <p>16. O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir R.H.Murtazaeva. - Toshkent, 2020.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.ziyonet.uz. 2. www.edu.uz. 3. www.google.uz. 4. www.gov.uz.
Ta'lim jarayonida tavsiya etiladigan jihozlar	Mavzuga oid stendlar, jadvallar, plakatlar, flipchart doska, markerlar to'plami, oddiy doska va boshqalar
Tuzuvchilar:	<p>R.H.Murtazayeva - O'zMU Tarix fakulteti "O'zbekistonning eng yangi tarixi" kafedrasida professori, tarix fanlari doktori.</p> <p>D.B.Bobojonova - O'zDJTU "O'zbekistonning eng yangi tarixi" kafedrasida professori, tarix fanlari doktori.</p> <p>K.D.Saipova - O'zMU "O'zbekistonning eng yangi tarixi" kafedrasida mudiri, tarix fanlari doktori.</p> <p>A.A. Yermetov - O'zMU "O'zbekistonning eng yangi tarixi" kafedrasida professori, tarix fanlari doktori.</p> <p>A.A.Odilov - O'zMU Tarix fakulteti "O'zbekistonning eng yangi tarixi" kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi.</p>
Taqrizchilar:	<p>R.E. Xoliqova - I.Karimov nomidagi TDTU O'zbekiston tarixi kafedrasida mudiri, professor, tarix fanlari doktori</p> <p>X.E. Yunusova - O'zMU "O'zbekiston tarixi" kafedrasida professori, tarix fanlari doktori.</p>
<p>O'quv dasturi Professional ta'limni rivojlantirish instituti "Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (transport turlari bo'yicha)" yo'nalishlari bo'yicha o'quv-metodik birlashmasining 2025-yil 12-avgustdagi 4-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2025-yil 18-avgustdagi 4-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2025-yil 21-avgustdagi 316-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.</p>	

2. Modul o'quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Umumiy yuklama	Auditoriya soatlar soni	Mustaqil ta'lim
1	Kirish. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.	"O'zbekistonning eng yangi tarixi" - O'zbekiston tarixining uzviy va ajralmas qismidir. "Eng yangi tarix" tushunchasi va uning izohi. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Fanni o'rganishning nazariy-uslubiy asoslari. Yuksak intellektual salohiyatli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda mamlakat eng yangi tarixining tutgan o'rne. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o'rne va sabablari to'g'risidagi fikr-mulohazalari. XXI globallashtirish asrida ta'lim sohasida mazkur fanni o'qitishdagi nazariy-konseptual yondashuv va ilg'or innovatsiyalar	12	6	6
2	O'zbek davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari.	Markaziy Osiyo - jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi. Davlatchilik tushunchasi. Markaziy Osiyo hududidagi ilk davlat uyushmalari. O'zbek davlatchiligi va uning tarixiy bosqichlari. Qadimgi Xorazm, qadimgi Baqtriya. Eramizning IX asriga qadar davlatchilik rivoji. IX-XII asrlarda hukmronlik qilgan davlatlar. Amir Temur - buyuk davlat arbobi va sarkarda. O'rta Osiyoning xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabab va oqibatlari. XVI-XIX asrlar birinchi yarmida O'rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy ahvol. Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasi mustamlaka tuzumi. Milliy ozodlik harakatlari. Mustamlaka boshqaruv tartiboti va uning mohiyati. Sud-huquq sohasidagi o'zgarishlar. Sovet hukmronligi davrida O'zbekistonning markazga ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qaramligi va uning oqibatlari.	12	6	6

		<p>Sovetlarning qatag'on-zo'ravonlik siyosati va uning mohiyati.</p> <p>Mamlakatimiz erki va ozodligi uchun kurashganlar: Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi. Jadid ma'rifatparvarlari.</p>			
3	<p>Mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.</p>	<p>XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat. Markazning O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'on-zo'ravonlik siyosati. "Paxta ishi", "o'zbek ishi". Aholi turmush tarzining og'irlashuvi. Orol fojiasi. Farg'ona voqealari. 1989 yil o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar. Milliy manfaatlar ustuvorligining o'sib borishi. I.Karimov - O'zbekistonning birinchi prezidenti. Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati. 1989-1991 yillarda amalga oshirilgan o'zgarishlar, ularning mohiyati. 1991 yil avgust voqealari. GKChP. Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.</p>	12	6	6
4	<p>Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil topishining tarixiy ahamiyati. O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li.</p>	<p>Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. O'zlikni anglashga intilishning kuchayishi. Siyosiy tizimdagi o'zgarishlar. Mustaqillikning e'lon qilinishi. O'zbekiston Respublikasining tashkil etilishi. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo'lidagi sa'y- harakatlar. Mustaqil O'zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida I.Karimovning tarixiy xizmatlari.</p> <p>Mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi muammolar. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lining tanlashi. Taraqqiyotning "O'zbek modeli" va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo'li. O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan strategiya asoslari. Mustaqillik me'yoriy-huquqiy asoslarining yaratilishi. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. Davlat ramzlari.</p>	12	6	6

5	O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar	<p>Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlar. O'zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o'zgarishlar. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik. O'z-o'zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o'zni. O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Inson haq-huquqlarini ta'minlash va himoya qilish. Oila instituti va uning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. O'z-o'zini boshqaruv organi -mahalla boshqaruv tizimining takomillashuvi. O'zbekiston Respublikasi Yangi Konstitutsiyasini umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023 y. 30 aprel).</p>	12	6	6
6	Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar.	<p>O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo'nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari. Bozor munosabatlariga o'tishning huquqiy asoslarining yaratilishi. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilini amalga oshirish mexanizmi. Pul islohotining o'tkazilishi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi, qishloq xo'jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo'nalishlari. Sanoat, avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi. Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish. Mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi, bank-moliya tizimini mustahkamlash borasidagi choratadbirlar. Makroiqtisodiy barqarorlik tomon yo'l olinishi.</p> <p>Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi. Manzilli ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish,</p>	12	6	6

		<p>sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy- siyosiy faolligini oshirish, aholini uy-joylar bilan ta'minlash, yo'l-transport muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy himoya masalasidagi ishtiroki. Gender tengligi. Xotin-qizlarga bo'lgan munosabat.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.</p> <p>Ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning mazmun-mohiyati. Mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi. Yangi jamiyat qurishda ta'lim va tarbiyaning o'rni va roli. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishi. Ta'limning milliy modelini shakllanishi, rivojlanishi va sohadagi muammolar.</p> <p>O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuni. Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi: yutuqlar va kamchiliklar. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.</p>			
--	--	---	--	--	--

7	Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ma'naviy va madaniy taraqqiyot.	Madaniy uyg'onish (renessans). Mamlakat hududida sodir bo'lgan renessanslar (IX-XII, XIV-XV asr) mohiyati. Xorazm Ma'mun akademiyasi. Yangi O'zbekiston uchinchi renessans tomon tutilgan yo'l. Milliy istiqlol g'oyasi va mafkuraviy masalalar. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning qayta tiklanishi. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo'lgan e'tibor. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi xizmati. Toshkent shahrining "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishi va uning ahamiyati. Madaniyat va san'at sohasining rivojlanishi. Milliy sport turlarining rivojlantirilishi. Beshta tashabbus va uning yuksak ma'naviy madaniyatni ta'minlashdagi o'rni. O'zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta'minlash borasidagi davlat siyosati. Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi. Amaliy san'at, rassomchilik, teatr va kino san'ati. Turizm sohasining rivojlanishi.	12	6	6
8	Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasi	Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar. Qoraqalpog'istonda qishloq xo'jaligi sohasidagi o'zgarishlar. Ma'naviy-madaniy sohadagi yangilanishlar. Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy ta'lim tizimi va undagi islohotlar. Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik ahvol. Orol fojiasi. Ekologik holatni yaxshilash borasidagi davlat siyosati. O'zbek va qoraqalpoqlar xalqi do'st va birodar xalqlar. Qoraqalpog'istonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va uning mohiyati.	12	6	6
9	O'zbekiston va jahon hamjamiyati	O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo'lga qo'yilishi. O'zbekiston Respublikasining	12	6	6

		<p>BMTga a'zo bo'lishi va jahon hamjamiyatidagi o'ziga xos o'zni. O'zbekistonning MDHdagi o'zni va mavqeyining oshib borishi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari. Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi. O'zbekistonning geosiyosiy va geoiqtisodiy o'zni. O'zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasida olib borgan siyosati. Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda O'zbekiston Respublikasining faolligi. O'zbekistonning ShHT bilan aloqalari. O'zbekistonning Markaziy Osiyo, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari bilan yangi strategik sherikchilik shartnomalarining imzolanishi. O'zbekiston Respublikasining faol tashqi siyosatining yangi bosqichi. O'zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasida olib borgan siyosati. 2021 yil Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqandda o'tkazilgan sammiti natijalari. O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'zni va nufuzining ortib borishi. "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish" borasidagi davlat siyosati, huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo'nalishdagi ishlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar</p>			
10	Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar	<p>2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va natijalari. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining mazmun mohiyati va</p>	12	6	6

	ustuvor yo'nalishlari. "Taraqqiyot strategiyasi" doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar. Ta'lim tizimi va sog'liqni saqlash sohasidagi o'zgarishlar. Sud tizimi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar.			
Jami		120	60	60

O'quvchilar bilimini baholash mezonlari

O'quvchilarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

o'quvchi mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

O'quvchi mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

O'quvchi olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

O'quvchi fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Harf tizimida baholash	Ballarning raqamli ekvivalenti	Foiz ko'rsatkichi	An'anaviy baholash
A	4,0	95-100	5 (A'lo)
A-	3,67	90-94	
B+	3,33	85-89	4 (Yaxshi)
B	3,0	80-84	
B-	2,67	75-79	
C+	2,33	70-74	
C	2,0	65-69	3 (Qoniqarli)
C-	1,67	60-64	
D+	1.33	55-59	2 (Qoniqarsiz)
D	1,0	50-54	

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
PROFESSIONAL TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA MAXSUS KASBIY TA‘LIMINING
NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi	XIZMATLAR		
Ta‘lim sohasi	Xizmat ko‘rsatish sohasi		
Ta‘lim yo‘nalishi	Logistika		
Mutaxassislik nomi	Tashishlarni tashkil etish va transportni boshqarish (turlari bo‘yicha)		
Mutaxassislik kodi	51010504		
Kvalifikatsiya(lar) nomi:	1. Texnik; 2. «B» yoki «BC» toifali avtomobil haydovchi (maxsus avtotransport haydovchisi)		
Modul nomi	Logistik tizimlarda axborot kommunikatsion texnologiyalar		
Modul kodi	5PM0478		
Modulga ajratilgan soat	Jami yuklama: 120 soat	Auditoriya mashg‘uloti: 120 soat	Mustaqil ta‘lim: 30 soat
ECTS-kreditlar miqdori	6		
Modul turi (<i>majburiy/tanlov</i>)	Majburiy		
Ta‘lim tili	Guruhga belgilangan o‘qitish tili asosida		

Modul o'quv dasturi umumiy talablari

Modul to'liq nomi	Logistik tizimlarda axborot kommunikatsion texnologiyalar
Modulning maqsadi	<p>Fanni o'qitishdan maqsad – zamonaviy informatsion fikrlash va ilmiy dunyoqarashni shakllantirilgan holda o'quvchilarni kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish, kompyuter bilan muloqot o'rnatish usullarini o'rgatish va unda turli masalalarni yecha olishga yo'naltirishdan iborat. Jumladan, yo'nalishlar sohasidagi masalalarni yechishda, mashinasozlikni loyihalashtirishda, mahsulot dizaynini ishlab chiqishda, sanoat mahsulotlarini tizimli tahlilida, tizim va kommunikatsiyani loyihalashda, muhandislik tahlilida, elektronika va mikroelektronika sohasida, geologiya muhandislik ishlarida, mexanika muhandislik sohasida loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirishda, texnik tizimlarda ma'lumotlar almashish jarayonida zamonaviy dasturiy vositalardan va texnologiyalardan shuningdek Internet texnologiyalaridan mukammal foydalanish kabilar katta ahamiyatga ega.</p>
O'zlashtirish (o'qitish) natijalari	<p>Axborot kommunikatsion texnologiyalari (AKT) asoslarini tushunish va logistik tizimlarda qo'llay oladi.</p> <p>Logistik jarayonlarda axborot tizimlari va dasturiy ta'minot vositalaridan foydalana oladi.</p> <p>Logistik tizimlarda ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va samarali qaror qabul qilish uchun AKT vositalaridan foydalana oladi.</p>
Modul mazmuni	<p>O'quv dasturida "Logistik tizimlarda axborot kommunikatsion texnologiyalar" faniga tegishli bo'lgan barcha mavzular bo'yicha o'quvchilarga Davlat ta'lim standartlari asosida yetkazilishi shart bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar to'la qamrab olingan. Unda "Logistik tizimlarda axborot kommunikatsion texnologiyalar" fanining o'qitilishi ta'lim yo'nalishlariga mos holda rejalashtirilishi ko'zda tutilgan.</p> <p>Logistik tizimlarda axborot kommunikatsion texnologiyalar iqtisodda, boshqarishda, aloqada, ilmiy tadqiqotlarda, ta'limda, xizmat ko'rsatish sohasida, tijorat, moliya va inson faoliyatining boshqa sohaslarida qo'llanilishining rivoji axborotlashtirish va jamiyat rivojini belgilovchi yo'nalish hisoblanadi. Kompyuter texnikasining qo'llanishi evaziga erishiluvchi samara axborot ishlanishi ko'lamining oshishi bilan ortib boradi.</p> <p>Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar ko'p jihatdan uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirishni taqozo etadi. Yangicha fikrlaydigan, bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli xo'jalik yurita oladigan malakali, chuqur bilimli mutaxassislarni, ayniqsa, axborot texnologiyalaridan keng foydalana oladigan malakali kadrlarni tayyorlash davr talabi bo'lib qolmoqda.</p>

<p>Egallanadigan kompetensiyalar</p>	<p>Kompyuter tizimlari va komplekslariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar, ish qurollari va jihozlarni tayyorlash;</p> <p>Kompyuter tizimlari va komplekslariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash;Tarmoqlarni rejalashtirish va qurish loyihalash;</p> <p>Periferiya qurilmalarini ishga tayyorlash, ularga texnik xizmat ko'rsatish va kompyuter tizimlari va komplekslarini topshirish.</p> <p>Avtomatlashtirilgan tizimlarda axborot xavfsizligi tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish.</p> <p>Kompyuter tizimlari va komplekslari dasturiy ta'minotini loyihalash;</p> <p>Kompyuter tizimlari va komplekslari dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;</p> <p>WEB – texnologiyalarni ishlatish joriy etish va boshqarish.</p> <p>Ma'lumotlar bazasini tashkil etish va ishlatish</p> <p>Yaratilgan axborot tizimining boshqaruv panelini yaratish</p> <p>Veb saytlar yaratish va uni ishlatishni boshqarish, matnli hujjatlarni tayyorlash va ishlatish boshqarish.</p> <p>Axborot va xabarlarni shifrlash kodlash va uni boshqarish.</p> <p>Dasturlashni loyihalashni va uni boshqarishni</p>
<p>Bilimlar</p>	<p>transport tizimidagi texnik masalalarni o'rganish, uning matematik modelini tuzish, transport tizimining rivojlanishi jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalarni oldindan o'rganish va uni yechish usullarini topishni bilishi kerak.</p>
<p>Ko'nikmalar</p>	<p>zamonaviy Matlab, MathCad, C++ tilining asoslarini o'rganish, muammolarni bartaraf qilish uchun bu tilda dastur tuzish va yechish, transport tizimidagi iqtisodiy masalalarni o'rganish, uning matematik modelini tuzish, kompyuter texnologiyalari va mos dasturiy vositalarni qo'llab, masalalarning aniq miqdoriy yechimlarini olib, tahlil qilish ko'nikmalarini hosil qilishni bilishi kerak;</p>
<p>O'qitishni tashkiliy shakli</p>	<p>Kunduzgi</p>
<p>Baholash tartibi</p>	<p>Baholash bo'yicha amaldagi tartib asosida</p>
<p>Axborot manbalari</p>	<p>1. J.B. Dixit. Fundamentals of computer programming and Information technology. India. 2009. - ISBN9788-131807019</p> <p>2. Aripov M.M. va b. Axborot texnologiyalari, o'quv qo'llanma. Toshkent, Noshir, 2009 y.</p> <p>3. Aripov M.M., Muxammadiyev J.U. Informatika. Informatsion texnologiyalar, darslik. Toshkent, 2007</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <p>1.Shodimetov X.M. va b. Informatika va axborot texnologiyalari, o'quv qo'llanma. Toshkent. 2012.</p>

	<p>2.Azamov S.S. Dasturlash asoslari. Uslubiy qo'llanma. Toshkent: Transport, 2021. – 140 b.</p> <p>3. Shadimetov X.M., Abdikayimov B.N., Nishanova G.X. Axborot texnologiyalari va jarayonlarni matematik modellashtirish, Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2019</p> <p>4.B.N. Abduqayumov., Axborot texnologiyalari va jarayonlarni matematik modellashtirish (uslubiy qo'llanma) Toshkent, 2020 y.</p> <p>Axborot manbalari : https://www.gov.uz/ https://lex.uz/ http://ziyonet.uz/ http://www.etuit.uz/ https://moodle.org/ http://elearning.zn.uz/ http://www.intuit.ru/ https://www.ispring.ru/ https://www.coursera.org/ https://ru.khanacademy.org/ https://www.courselab.ru/</p>
Ta'lim jarayonida tavsiya etiladigan jihozlar	Kompyuter, printer, elektron doska va boshqalar
Tuzuvchilar:	<p>X.M.Shadimetov – Toshkent davlat transport universiteti “Informatika va kompyuter grafikasi” kafedrasini mudiri f.-m.f.d., professor</p> <p>B.N. Abdikayimov - ToshDTU, “Informatika va kompyuter grafikasi” kafedrasini katta o'qituvchisi;</p> <p>F.A.Nuraliyev - Toshkent davlat transport universiteti “Informatika va kompyuter grafikasi” kafedrasini mudiri f.-m.f.d., professor</p> <p>S.S.Azamov - Toshkent davlat transport universiteti “Informatika va kompyuter grafikasi” kafedrasini dotsenti, PhD</p>
Taqrizchilar:	<p>A.R. Hayotov - O'zFA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti “Hisoblash matematikasi” bo'limi mudiri f.-m.f.d., professor</p> <p>M.O'. Xudoyberganov - O'zbekiston Milliy Universiteti “Hisoblash matematikasi va axborot tizimlari” kafedrasini mudiri: DSc, dotsent</p>
<p>O'quv dasturi Professional ta'limni rivojlantirish instituti “Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (transport turlari bo'yicha)” yo'nalishlari bo'yicha o'quv-metodik birlashmasining 2025-yil 12-avgustdagi 4-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2025-yil 18-avgustdagi 4-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2025-yil 21-avgustdagi 316-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.</p>	

2. Modul o'quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Umumiy yuklama	Auditoriya mashg'uloti	Mustaqil ta'lim
1	Logistik tizimlarda axborot kommunikatsion texnologiyalar faniga kirish.	Axborot kommunikatsion texnologiyalarining komponentlari. Kompyuter tizimlari.	8	6	2
	Word dasturida hujjatlar ustida ishlash.	Texnik tizimlarda murakkab hujjatlar yaratish va qayta ishlash texnologiyasi.			
2	Zamonaviy avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari	Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarining texnik sohalarda qo'llanilishi.	8	6	2
	Excel dasturida hujjatlar ustida ishlash.	Muhandislik masalalarini elektron jadvallar yordamida yechish			
3	Texnik tizimlarida tarmoq texnologiyalari. Tarmoq texnologiyalari-dan foydalanish.	Texnik sohalarda tarmoq servislari. Texnik qurilmalarni masofaviy tarmoqda boshqarish.	8	6	2
	MathCad dasturida matematik hisoblashlarni bajarish	MathCad integrallashgan sohasida muhandislik masalalarini yechish			
4	Zamonaviy dasturlash texnologiyalari	Dasturlash tillari va tizimlari, ularning ishlatilishi va tasnifi. Algoritmalar. Xossalari, turlari. Blok-sxemalar. Chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi algoritmalar	8	6	2
	Matlab dasturida matematik hisoblashlarni bajarish	Matlab dasturida muhandislik masalalarini yechish.			
5	C++ dasturlash tili va muhiti.	Dastur elementlari. Alifbosi. Identifikatorlar.	8	6	2
	Algoritmalar.	Chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi jarayonlarga algoritmalar tuzish.			
6	C++ tilida ma'lumotlar va ularning turlari.	O'zgarmlar. O'zgaruvchilar. C++ tilida ifodalar. Operatorlar.	8	6	2
	C++ tilining asosiy elementlari	Nomlar (Identifikatorlar). C++ tilida ma'lumotlar va ularning turlari. O'zgarmlar. O'zgaruvchilar			

7	Ma'lumotlarni kiritish va chiqarish operatorlari (protseduralari).	Chiziqli jarayonlarga dasturlar tuzish. Tarmoqlanuvchi jarayonlarga dasturlar tuzish.	8	6	2
	C++ tilida operatorlar.	C++ tilida ifodalar. Operatorlar. Ma'lumotlarni kiritish va chiqarish operatorlari			
8	C++ tilida tarmoqlanuvchi jarayonlarga dasturlar tuzish	Shartli o'tish operatori	8	6	2
	Tarmoqlanuvchi jarayonlarga dasturlar tuzish.	Shartli o'tish operatori. U yordamida dasturlar tuzish.			
9	C++ tilida takrorlanuvchi jarayonlarga dasturlar tuzish	Sharti oldin beriladigan va sharti keyin beriladigan sikl operatorlari. Parametrlilik sikl operatorlari.	8	6	2
	Takrorlanuvchi jarayonlarga dasturlar tuzish.	Sharti oldin beriladigan va sharti keyin beriladigan sikl operatorlari.			
10	Parametrlilik sikl operatorlari.	Break, continue va goto operatorlari. Ular yordamida dasturlar tuzish.	8	6	2
	Parametrlilik sikl operatorlari.	For, Break, continue va goto operatorlari			
11	C++ tilida massivlar.	Bir o'lchovli massivlar. Ko'p o'lchovli massivlar. Dinamik massivlar.	8	6	2
	C++ tilida massivlar.	Bir o'lchovli massivlar. Ko'p o'lchovli massivlar			
12	Texnik tizimlarda hisoblash texnologiyalari.	Integrallarni taqribiy hisoblash algoritmi va dasturi.	8	6	2
	Texnik tizimlarda hisoblash texnologiyalari.	Amaliy dasturlardan foydalanib aniq integrallarni taqribiy hisoblash			
13	Differensial tenglamalarni taqribiy yechish algoritmi va dasturlari.	Differensial tenglamalarni taqribiy yechish usullari	8	6	2
	Texnik tizimlarda hisoblash texnologiyalari.	Differensial tenglamalarni amaliy dasturlar orqali yechish.			
14	Texnik tizimlardagi hisoblash masalalari	Chiziqli dasturlash masalalari. Jarayonlarning chiziqli modellarini tuzish.	8	6	2
	Optimallashtirish masalalari.	Chiziqli dasturlash masalalari amaliy dasturlar orqali yechish.			
15	Transport masalasini yechish usullari	Transport masalasini yechishning potentsiallar usuli.	8	6	2
	Optimallashtirish masalalari.	Transport masalasini yechishning potentsiallar usuli.			
Jami			120	90	30

O'quvchilar bilimini baholash mezonlari

O'quvchilarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

o'quvchi mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

o'quvchi mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

o'quvchi olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

o'quvchi fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Harf tizimida baholash	Ballarning raqamli ekvivalenti	Foiz ko'rsatkichi	An'anaviy baholash
A	4,0	95-100	5 (A'lo)
A-	3,67	90-94	
B+	3,33	85-89	4 (Yaxshi)
B	3,0	80-84	
B-	2,67	75-79	
C+	2,33	70-74	
C	2,0	65-69	3 (Qoniqarli)
C-	1,67	60-64	
D+	1.33	55-59	2 (Qoniqarsiz)
D	1,0	50-54	

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
PROFESSIONAL TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA MAXSUS KASBIY TA‘LIMINING
NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi	XIZMATLAR		
Ta‘lim sohasi	Xizmat ko‘rsatish sohasi		
Ta‘lim yo‘nalishi	Logistika		
Mutaxassislik nomi	Tashishlarni tashkil etish va transportni boshqarish (turlari bo‘yicha)		
Mutaxassislik kodi	51010504		
Kvalifikatsiya(lar) nomi:	1. Texnik; 2. «B» yoki «BC» toifali avtomobil haydovchi (maxsus avtotransport haydovchisi)		
Modul nomi	Biznes asoslari		
Modul kodi	5PM0142		
Modulga ajratilgan soat	Jami yuklama: 90 soat	Auditoriya mashg‘uloti: 60 soat	Mustaqil ta‘lim: 30 soat
ECTS-kreditlar miqdori	3		
Modul turi (<i>majburiy/tanlov</i>)	Majburiy		
Ta‘lim tili	Guruhga belgilangan o‘qitish tili asosida		

Modul o'quv dasturi umumiy talablari

Modul to'liq nomi	Biznes asoslari
Modulning maqsadi	<p>O'quvchilarga o'z biznes g'oyasini amalga oshirish va shaxsiy daromadga ega bo'lish hamda daromadlarini oshirish uchun o'zining shaxsiy tadbirkorlik korxonasiga asos solishga o'rgatish.</p>
O'zlashtirish (o'qitish) natijalari	<p>Jamg'arma o'yini:</p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ Har bir kishi uchun, shuningdek xalq xo'jaligi uchun jamg'arishning ahamiyati haqida bilimga ega bo'lish; ➤ Daromadlar, xarajatlar, ehtiyojlar, istaklar kabi tushunchalarni anglab yetish; ➤ Jamg'arishni kredit olishga nisbatan taqqoslab ko'rish; ➤ Inflyatsiyaning jamg'arma balansi va kreditlarga ta'sirini farqlash; ➤ Shaxsiy byudjetni shakllantirish va uni tahlil qilish; ➤ Hozirgi holatdagi va kelajakdagi ehtiyojlar va istaklar o'rtasidagi farqni tushunish; ➤ Jamg'arishning maqsadi va ahamiyati(qiymati)ni tushunish; ➤ Turli xil jamg'arish shakllari bilan tanishish; ➤ Mos va mos bo'lmagan moliyaviy institutlarni bir-biridan farqlash. <p>Mikro biznes o'yini:</p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ Eng asosiy maqsad – simulyatsiyaning amaliy yondashuv usuli orqali mikrokorxonani qanday boshqarishni o'rganishdir; ➤ Ishtirokchilar tadbirkorlik faoliyatida duch keladigan qiyinchiliklar va imkoniyatlarda qanday yo'l tutish kerakligini o'rganadilar; ➤ Biznes hayotga oid asosiy bilimlar; ➤ Tadbirkorona fikrlash va harakat qilish; ➤ Biznes g'oyani yanada rivojlantirish; ➤ Buxgalteriya hisobi va nazorati bo'yicha asosiy bilimlar; ➤ "O'z mijozingni tanib ol" " (KYC - Know Your Customer) tamoyilining ahamiyatini anglash; ➤ Marketing asoslari, bozor dinamikasi va raqobat; ➤ Qarz va kredit olish jarayonlari yuzasidan kredit institutlari bilan muomalada qanday harakat qilishni o'rganish. <p>Biznesni rejalashtirish va kredit olish bo'yicha suhbatga tayyorgarlik ko'rish:</p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ Biror biznesni rejalashtirishning funksiyalari va asosiy qismlari bilan tanishib chiqish; ➤ Ishtirokchilarning individual biznes g'oyalari asosida o'z shaxsiy biznes rejasini tuzish; ➤ Ratsional(aql bilan yondashuv) va iqtisodiy yondashuvlarning ahamiyati haqida bilib olish; ➤ Turli rejalashtirish sohalari bo'yicha ishlaganda tizimli(sistematik) yondashuvni qo'llash;

	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Turli modellar va o'zaro bog'liqliklar asosida fikrlash; ➤ Imkoniyatlar va xavf-xatarlarni hisobga olgan holda real hayot hissiga asoslanish; ➤ Bankka kredit olish uchun ariza topshirish; ➤ Kredit olish uchun suhbatga tayyorgarlik ko'rish; ➤ Kredit olish uchun suhbatda so'raladigan kerakli hujjatlar; ➤ O'zining biznes g'oyasi, shuningdek biznes rejasini o'ziga ishonch bilan taqdimot qilib berish; ➤ Bank berishi mumkin bo'lgan savollarga javob/munosabat bildirish; <p>Garovni taqdim etish zarurati.</p>
Modul mazmuni	<p>Biznes asoslari fanining Jamg'arma o'yini va Mikro biznes o'yinlari hamda Biznesni rejalashtirish va kredit olish bo'yicha suhbatga tayyorgarlik ko'rish bo'limlari asosida o'quvchilarga o'z biznes g'oyasini amalga oshirish va shaxsiy daromadga ega bo'lish hamda daromadlarini oshirish uchun o'zining shaxsiy tadbirkorlik korxonasi asos solish kabi mazmunlar tashkil etadi</p>
Egallanadigan kompetensiyalar	<p>Jamg'arma o'yini va Mikro biznes o'yinlari hamda Biznesni rejalashtirish va kredit olish bo'yicha suhbatga tayyorgarlik ko'rish asosida rejalashtirilgan simulyatsiyaning amaliy yondashuv usuli orqali korxonani qanday boshqarishni o'rganish hamda Ishtirokchilar tadbirkorlik faoliyatida duch keladigan qiyinchiliklar va imkoniyatlarda qanday yo'l tutish kerakligini bo'yicha olingan bilimlar asosida kompetensiyalar shakllantiriladi</p>
Bilimlar	<p>Jamg'arma o'yini:</p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ Moliyaviy bilimlarni oshirish; ➤ Shaxs va oila uchun moliyaviy zaxira (moliyaviy yostiqcha)ning qiymatini anglab olish; ➤ Uy xo'jaligini yuritish bo'yicha xarajatlarni aniqlab olish va ularni tushunish; ➤ Jamg'arishning maqsadi va foydalarini anglab yetish; ➤ Jamg'arma kiritishning sehrli uchburchagi haqida bilib olish; ➤ Kredit olish maqsadi va sababini bilib olish; ➤ Makroiqtisodiyot bo'yicha dastlabki bilim va taassurotlar bilan tanishish; ➤ Inflyatsiya va uning ta'sirini tushunib olish; ➤ Favqulodda vaziyatlar uchun pul tejab qo'yishning ahamiyatini tushunib olish. <p>Mikro biznes o'yini:</p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ Zamonaviy tadbirkorlikning mazmuni va mohiyatini anglash; ➤ Voqealar kontekstida qarorlar qabul qilish; ➤ Sarmoya kiritish bo'yicha qarorlar qabul qilish; ➤ Tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning rolini tushunish; ➤ Bozor iqtisodiyotida marketingni ahamiyati bilan tanishib chiqish; ➤ Balans, foyda va zarar hisobi, naqd pul oqimi hisobi misolida buxgalteriya hisobining asoslari bilan tanishish;

	<p>➤ Mahsulotlar va xizmatlarni reklama qilish.</p> <p>Biznesni rejalashtirish va kredit olish bo'yicha suhbatga tayyorgarlik ko'rish:</p> <p>➤ Biznesni rejalashtirishning funksiyalari va asosiy qismlari bilan tanishib chiqish va shaxsiy biznes g'oya misolida uni qo'llash;</p> <p>➤ O'zining shaxsiy biznes rejasini yaratish jarayonida ratsional(aql bilan) va iqtisodiy fikrlashga asoslanish;</p> <p>➤ Korxonani xo'jaligini yuritishga oid bilimlar va oddiy jarayonlarni o'rganish va qo'llash;</p> <p>➤ Tegishli bozorni o'rganish(tadqiq qilish) metodlari va mavjud raqobatni o'rganib chiqish/tahlil qilish;</p> <p>➤ Zarur sarmoyalar uchun xarajatlarni hisoblash;</p> <p>➤ Rejalashtirilgan korxonani uchun foyda va zarar hisobini tuzib chiqish;</p> <p>➤ Bankdan kredit olish uchun ariza topshirish va kreditni olish jarayoni;</p> <p>➤ Kredit olish arizalari bo'yicha banklarning talablari va kichik tadbirkorlarni bu jarayonda qo'llab-quvvatlashi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish;</p> <p>➤ Eng muhim huquqiy va soliqqa oid talablar bo'yicha asosiy bilimlarga ega bo'lish;</p> <p>➤ Korxonani ochish uchun lozim bo'lgan ta'sis hujjatlarni bilish.</p>
<p>Ko'nikmalar</p>	<p>Jamg'arma o'yini:</p> <p>➤ Uy xo'jaligi daromadlarini muvaffaqiyatli boshqarish;</p> <p>➤ Uy xo'jaligi byudjetini tuzish, kuzatib borish va tahlil qilish;</p> <p>➤ Jamg'arishdan ko'zlangan maqsadga erishish</p> <p>➤ Xarajatlarni daromadga nisbatan bog'liqlikda ko'rib chiqish;</p> <p>➤ Xohish-istaklarni ehtiyojlardan farqlay olish;</p> <p>➤ Hozirgi va kelajakdagi xohish-istaklar va ehtiyojlarni farqlash;</p> <p>➤ Yashash sharoitlarni yaxshilash;</p> <p>➤ Hayotdagi xavf-xatarlarni baholay olish;</p> <p>➤ Ehtiyot choralarini ko'rib qo'yish;</p> <p>➤ Mos keluvchi moliyaviy institutni tanlay olish;</p> <p>➤ Hayot sifati darajasini to'g'ri qarorlar qabul qilish orqali oshirish;</p> <p>➤ Ishonchli moliyaviy institutlarni aniqlab olish;</p> <p>➤ Izlash va tadqiq etish uchun ma'lumotlar manbalaridan foydalana bilish.</p> <p>Mikro biznes o'yini:</p> <p>➤ Qaror qabul qilishning ahamiyati;</p> <p>➤ Eng muhim moliyaviy hujjatlarni tuzish (Balans, foyda va zarar hisobi, naqd pul oqimi hisobi);</p> <p>➤ Sotuvni rejalashtirish va shunga mos ravishda harakatlarni amalga oshirish;</p> <p>➤ Xarajatlar va sarmoyalarni bir-biridan farqlash va ularning korxonaga ta'sirini anglash;</p> <p>➤ O'z mijozlarini bilish orqali korxonani rivojlantirish;</p>

	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Reklamani maqsadli ravishda qo'llash; ➤ Kutilmagan holatlarda qarorlar qabul qilish; ➤ Bozor sharoitlariga mos munosabat bildirish; ➤ Tadbirkorlik faoliyati sohalarini kengaytirish va qo'shimchalar qilish. <p>Biznesni rejalashtirish va kredit olish bo'yicha suhbatga tayyorgarlik ko'rish:</p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ O'z biznes-rejasini tuzish; ➤ Korxonaga xo'jaligini yuritishga oid bilimlar va jarayonlarni qo'llash; ➤ Bozorni tadqiq qilganda va raqobat tahlilida tizimli(sistematik) yondashish; ➤ Xarajatlar va sarmoyalarni bir-biridan farqlashni bilish va amalda qo'llash; ➤ Kreditni qaytarish turlarini bilish; ➤ Sarmoya va kredit xarajatlarini hisoblashni o'zlashtirib olish; ➤ Kredit olish uchun hujjatlarni tayyorlash; ➤ Kredit olish uchun suhbatga tayyorgarlik ko'rish; ➤ Biznes g'oyani o'ziga ishonch bilan taqdimot qilib berish; ➤ Bank berishi mumkin bo'lgan savollarga tayyorgarlik ko'rish; Bankdagi kredit olish suhbatlarini simulyatsiya qilish.
O'qitishni tashkiliy shakli	Kunduzgi
Baholash tartibi	Baholash bo'yicha amaldagi tartib asosida
Axborot manbalari	<ol style="list-style-type: none"> 1. Raxmatullayeva D.R. "Kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirib o'qitishni takomillashtirish". Pedagogika fanlari bo'yicha Falsafa doktori (PhD) doktorlik dis. –T.:2018. –B.130. 2. Raxmatullayeva D.R. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish. O'quv qo'llanma. "Tafakkur bo'stoni". –T.: 2022. - Bet 112. 3. Raxmatullayeva D.R.Tadbirkorlikni tashkil etish. O'quv qo'llanma. "Tafakkur bo'stoni". –T.: 2022. - Bet 120. 4. Raxmatullayeva D.R. Tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo'lganlar uchun o'quv qo'llanma. –T.: 2021. –B.75. 5. Samadov A.N., Ostanaqulova G.N. Kichik biznes va tadbirkorlik. –T.: "Moliya-iqtisod". 2008.
Ta'lim jarayonida tavsiya etiladigan jihozlar	Mavzuga oid stendlar, jadvallar, plakatlar, flipchart doska, markerlar to'plami, oddiy doska va boshqalar
Tuzuvchilar:	<p>D.Rahmatullayeva Professional ta'limni rivojlantirish instituti "Ta'limda boshqaruv" kafedrasida dotsenti</p> <p>M. Daniyoroova Toshkent temir yo'l texnikumi "Buxgalteriya va audit" kafedrasida mudiri</p>

Taqrizchilar:	Z.Xudayberdiyev Professional ta'limni rivojlantirish instituti direktori i.f.d. prof.
<p>O'quv dasturi Professional ta'limni rivojlantirish instituti "Biznes va boshqaruv" yo'nalishlari bo'yicha o'quv-metodik birlashmasining 2025-yil 12-avgustdagi 4-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2025-yil 18-avgustdagi 4-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2025-yil 21-avgustdagi 316-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.</p>	

2. O'QUV DASTURI MAZMUNI

"JAMG'ARMA" O'YINI SIMULYATSIYASI

No	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O'qitishni tashkiliy	Mustaqil ta'lim
1	Simulyatsiyaga kirish va shaxsiy uy xo'jaligida jamg'arish	Jamg'arma o'yinining maqsadi va "Bajarib ko'rish – mulohaza qilish – qo'llab ko'rish"ga asoslangan pedagogik yondashuv. O'yinni, shuningdek texnik atamalarni tushuntirish. G'oliblik mezonlari bilan tanishtirish. Hayot sifatini oshirish maqsadidan kelib chiqqan holda jamg'arishning ahamiyatini tushunish.	2	N	
2	Jamg'arma maqsadi va maqsadli jamg'arish yo'llari	Birgalikdagi umumiy oila maqsadini aniqlab olish va unga erishish maqsadida harakat qilish. Daromad holatini tushunish va sarf-xarajatlar bo'yicha hatti-harakatlarni kuzatib borish. Kutilmagan voqea-hodisalarda qanday harakat qilishni bilish. Ortiqcha mablag'ni hisoblash uchun daromadlar, shuningdek kutilayotgan xarajatlarni rejalashtirish. Hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlar va xohish-istaklar o'rtasidagi farqni aniqlash. O'z shaxsiy holati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish. Byudjetni rejalashtirish, tahlil qilish va kuzatib borish.	4	N, A, S	2

		Jismoniy shaxslar jamg'armalarining banklar va moliyaviy institutlarga, shuningdek jamiyatga ta'siri. Jamg'arma mablag'larining xalq xo'jaligi uchun ahamiyati. O'zbekistondagi mavjud jamg'arish shakllari.			
3	Jamg'arma turlari. Mablag'ni maqsadli jamg'arish yoki kredit olish	Foizlar nima va uni to'lash qanday amalga oshiriladi. Belgilab olingan oilaviy maqsadni doim e'tiborda tutish. Kutilmagan voqea-hodisalarda qanday harakat qilishni bilish. Jamg'arish va kredit olishni bir-biriga qarshi qo'ygan holda taqqoslash. Ularning ijobiy va salbiy tomonlarini taqqoslash.	2	N, A	1
4	Jamg'arishda moliyaviy tashkilotlarning roli	Jamg'arish maqsadiga erishish uchun bankning bizga keltiradigan foydasi. Ishonchli moliyaviy institutlarning asosiy belgilari nimalardan iborat? Ular o'rtasidagi farqlar nimalarda namoyon bo'ladi. Shaffof va ishonchli axborot manbalariga asoslanish. Foiz to'lovining ahamiyati. Foiz stavkalarining banklar yoki boshqa moliyaviy institutlar tomonidan shakllantirilishi. Vaqt o'tishi nuqtai nazaridan foiz stavkalarining rivojlanishi (o'zgarishi). O'zbekistondagi mavjud foiz stavkalari.	2	A, S	2
5	Uy xo'jaligining daromad va xarajatlari	Daromadni xarajatlarga nisbatan qarama-qarshi qo'yib taqqoslash. O'zgarmas va o'zgaruvchan xarajatlar o'rtasidagi farqni aniqlash. O'zbek uy xo'jaliklariga xos bo'lgan xarajatlar.	2	N, A	1
6	O'z shaxsiy byudjetini boshqarish	Daromadni ko'paytirish va xarajatlarni qisqartirish. Shaxsiy byudjetga foyda bo'lishi uchun ortiqcha iste'moldan voz kechishni mashq qilish. Iste'moldan voz kechish va jamg'arish imkoniyatlarini aniqlash. Muntazam ravishda tejab borishning maqsadga muvofiqligi.	2	N, A	1
7	Sarmoya kiritishning "Sehrli uchburchagi"	Sarmoya kiritishda likvidlik, rentabellik va xavfsizlik kabilarni farqlay olish va shaxsiy sarmoya kiritishda e'tiborga olish. Ushbu tamoyillar asosida jamg'arma mahsulotlarini bir-biridan farqlash.	2	N, A	2

8	Inflyatsiya o'zgarishining jamg'arma balansiga ta'siri	Inflyatsiya va deflyatsiyani anglab olish. Inflyatsiya va deflyatsiyaning ta'sirlari, masalan: jamg'arma balansiga yoki kreditlarga. O'zbekistondagi hozirgi inflyatsiya darajasi. Yuqori inflyatsiya darajasiga qaramasdan sarmoya kiritish	2	N, A	1
JAMI:			18		10

“MIKRO BIZNES” O'YINI SIMULYATSIYASI

No	Mavzu	O'quv mazmuni	Jami	O'qitishni tashkiliy shakli	Mustaqil ta'lim
1	Simulyatsiyaga kirish va kichik korxonalarining boshlang'ich holati	Simulyatsiya o'yinining mazmun mohiyatini tushuntirish. Mikro biznes o'yinining maqsadi va “Bajarib ko'rish – mulohaza qilish – qo'llab ko'rish”ga asoslangan pedagogik yondashuv. Biznes o'yin tartibi, shuningdek maxsus sohaga oid atamalarni tushuntirish. G'oliblik mezonlari bilan tanishtirish. Nima uchun sotishni rejalashtirish eng boshidagi vazifa hisoblanadi.	2	N	
2	Boshlang'ich iqtisodiy holatni shakllantirish	Sharbat do'konining dastlabki balansini tuzish uchun kirish qismda bajariladigan mashq. Sohaga oid maxsus atamalarni tushuntirish Korxonada sotuvni rejalashtirish, xaridlar va xarajatlar to'g'risida jamoa bilan birgalikda qarorlar qabul qilish. Hozirgi mavjud voqealarni hisobga olgan holda tovarlar sotuvini tashkillashtirish. Ish haqini o'z egalariga to'lashning ahamiyati. Guruh natijalariga nazar tashlash va ulardan qanday xulosa chiqarish mumkinligini muhokama qilish.	4	N, A, S	1
3	Sotuvlarni rejalashtirish	Sotishni batafsil rejalashtirishning ahamiyati. Ta'minotchilarning roli. “O'z mijozingni tanib ol” (Know Your Customer) konsepsiyasi. Ta'minotchilarni boshqarish. Nechta ta'minotchi bilan ishlash maqsadga muvofiq?	2	N, A	2
4	Korxonada faoliyatini kengaytirish	Bozor o'zgarib turadi – bunda tadbirkor sifatida qanday yo'l tutish kerak?	2	S	1

		Sarmoya(investitsiya)larning ahamiyati. Sarmoyalar va xarajatlarni bir-biridan farqlash.			
5	Mahsulot va uni shakllantirishda texnologiyalardan foydalanish	Mahsulot siyosatining korxonaga ta'siri. Hodimlarni boshqarish. Korxonada texnikani qo'llashning ahamiyati. Texnologiyalardan foydalanishda qo'llab-quvvatlovchi holatlarni e'tiborga olish.	2	N/A	1
6	Kelajak uchun sarmoyalar kiritish	Mahsulotlar assortimentini kengaytirish va korxonaga sarmoyalar kiritish. Guruh natijalariga nazar tashlash va ulardan qanday xulosa chiqarish mumkinligini muhokama qilish.	2	S	1
7	Kredit olish tartibi	Moliyaviy bo'shliqlarni to'ldirish usullari. Kredit evaziga sarmoya kiritish. Xarajatlar va majburiyatlar. Mos keluvchi kredit tashkilotlarini topish.	2	N, A	2
1	Kirish. Fanning maqsad va vazifalari.	Auditoriya mashg'uloti: Fanning maqsad va vazifalari. Avtomobil transporti sohasini rivojlantirish to'g'risidagi hukumat qarorlari, qonunlar, nizom va qoidalar. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligidan so'ng avtomobil transportini rivojlantirish uchun amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan ishlar.	4	2		2
2	O'zbekiston yo'lovchi transporti va uni rivojlantirish masalalari.	Auditoriya mashg'uloti: Transport va uning jarayonlari haqida. O'zbekiston Respublikasining yagona transport tizimi. Yo'lovchi	8	4		4

		avtomobil transporti, tarkibi va turlari. Avtomobil transportida tadbirkorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi. Yo'nalishlarda yo'lovchilarni tashish uchun ochiq tenderlarni tashkil etishning huquqiy asoslari .				
3	Avtokorxonada tasarruf xizmati bo'limining asosiy vazifalari, uning tashkiliy tuzilishi	Auditoriya mashg'uloti: Avtokorxonada tasarruf xizmati bo'limining asosiy vazifalari, uning tashkiliy tuzilishi. Tasarruf bo'yicha bo'lim boshlig'i lavozimi yo'riqnomasi. Tasarruf bo'limi tashkiliy tuzilmasi. Tashishni rejalashtirish. Tasarruf ishlarini bajarishda hujjatlarni yuritilishi. Tashish rejasini bajarish. O'quv amaliyoti: Tasarruf ishlarini bajarishda hujjatlarni yuritish va tashishni rejalashtirish.	16	6	6	4
4	Avtosaf va uning vazifasi	Auditoriya mashg'uloti: Avtosafning tashkiliy tuzilmasi. Avtosaf boshlig'i lavozimi yo'riqnomasi. Mavjud bo'lgan ish yuritish hujjatlari. Avtosafga birlashtirilgan avtobuslarni tasarruf etilishi. Haydovchilar brigadalari ishini tashkil etilishi. Chiptachilar ishini tashkil etilishi.	10	6		4
5	Haydovchilar mehnatini tashkil etilish	Auditoriya mashg'uloti: Mehnatni tashkil etish bo'yicha qonunlar. Haydovchilar mehnatini tashkil etilishi. Avtobus haydovchisiga yo'riqnoma. Avtobus haydovchisining hujjatlari. Haydovchilar mehnatini tashkil etish usullari. Haydovchilar oylik ish jadvali.	10	6		4
6	Avtobuslarda tashishini tashkil etish.	Auditoriya mashg'uloti: Yo'nalish tarmog'i va avtobus yo'nalishlari. Avtobus yo'nalishlarini ochish, yo'nalish pasporti. Avtobuslar ishining tasarruf ko'rsatkichlari. Yo'lovchilar oqimi va uni o'rganish usullari. Haydovchi va chiptachilar mehnatini tashkil qilish. Avtobuslar harakat jadvali. Shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchilar tashishni tashkil etish Shohbekatlar,	16	6	6	4

		boshbekatlar va yo'l qurilmalarining vazifalari . O'quv amaliyoti: Shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchilar tashishni tashkil etish				
7	Engil avtomobillarda tashishini tashkil etish.	Auditoriya mashg'uloti: Taksilarda yo'lovchilar tashishni tashkil etish. Taksilar ishining texnik tasarruf ko'rsatkichlari. Yo'nalishli taksilarda yo'lovchilar tashishni tashkil etish.	8	4		4
8	Avtobuslar va taksilar ishini nozimlik boshqaruvi .	Auditoriya mashg'uloti: Avtobuslarda tashishning nozimlik boshqaruvi. Nozimlarning vazifalari. Avtobuslarning harakat muntazamligini saqlash usullari. Avtobuslarning ishga chiqishini tashkil etish. Yo'l va hisob-chipta varaqasi. Taksilarda tashishning nozimlik boshqaruvi. O'quv amaliyoti: Avtobuslar va yengil avtomobil-taksilar harakatini GPS tizimi orqali boshqarish.	16	6	6	4
9	Avtobuslar va engil avtomobillar ishi samaradorligini oshirish yo'llari	Auditoriya mashg'uloti: Avtobuslar va taksilar ishini samaradorligini oshirish yo'llari. Yo'lovchi transportida tarif va chiptalar tizimi.Tarif turlari. Shaharlararo yo'nalishlarda tariflar. Yo'l-kira xaqqi jadvali. O'quv amaliyoti: Avtomobillar va boshqa yo'lovchi transportlar ishini muvofiqlashtirish.	16	6	6	4
10	Avtobuslar harakat jadvali	Auditoriya mashg'uloti: Avtobuslar jadvalini tuzilishi va uni amalda qo'llanishi. Avtobuslar jadvalini tuzish uchun kerakli dastlabki ma'lumotlar. Avtobuslar jadvalidan foydalanishdagi tasarruf ko'rsatkichlar. Avtobuslar harakat jadvalini tuzish ketma ketligi. Avtobuslar jadvalini tuzishda kompyuter texnologiyasi dasturiy ta'minoti. O'quv amaliyoti: Avtobuslar harakat jadvalini tuzish	12	4	6	2

11	Yo'l varaqasi va uni rasmiylashtirish.	<p>Auditoriya mashg'uloti: Avtobus haydovchisiga beriladigan yo'l varaqasi va undan foydalanish. Yo'l varaqasining tuzilishi. Yo'l varaqasini to'ldirish bo'yicha yo'riqnoma. Yo'l varaqasini qabul qiluvchi mas'ul shaxslar. Yo'l varaqasini to'ldirish.</p> <p>O'quv amaliyoti: Yo'l varaqasini rasmiylashtirish.</p>	16	6	6	4
12	Tashish uchun shartnomalar tuzish	<p>Auditoriya mashg'uloti: Tashish uchun buyurtmalar. Tashish uchun shartnoma. Tashish shartnomasi bandlari.</p> <p>O'quv amaliyoti: Shartnomani rasmiylashtirish.</p>	14	6	6	2
13	Nozimlikni yuritish hujjatlari tayyorlash	<p>Auditoriya mashg'uloti: Nozimlik yuritish hujjatlari. Avtobuslarda yo'lovchilar tashishda va bagajlarni tashishda qo'llanadigan tariflar. Bajarilgan qatnovlarni hisobga oluvchi yo'riqnoma va qatnovlarni baholash. Avtokorxonada tasarrufidagi marshrutlar chizmasini va avtosaflar bo'yicha yo'nalishlar jadvali. Avtokorxonaning tasarruf faoliyati bo'yicha berilgan asosiy kunlik va oylik reja ko'rsatkichlari. Uyushmaning harakat tarkibi ishini tartibga soluvchi buyruqlar va me'yoriy hujjatlar. Tasarruf xizmati bo'limida tuziladigan tezkor-texnik hujjatlar.</p> <p>O'quv amaliyoti: Avtokorxonaning tasarruf faoliyati bo'yicha berilgan asosiy kunlik va oylik reja ko'rsatkichlarni hisoblash</p>	16	6	6	4
14	Haydovchilar ishini nazorat qilish	<p>Auditoriya mashg'uloti: Haydovchilarning ish va dam olish vaqtлари. Haydovchilar ishini nazorat qilish usullari.</p>	10	6		4
15	JPS tizimi orqali avtobuslar ishini nazorat qilish	<p>Auditoriya mashg'uloti: JPS tizimini ishlash prinsipi. ATK da JPS operatorini vazifalarini o'rganish. Ishga chiqqan avtobuslarni harakatini kuzatish. JPS tizimi orqali avtobuslarni belgilangan yo'nalish bo'yicha harakat grafigiga rioya</p>	16	6	6	4

		qilishini nazorati. Tezlikni, oraliq bekatlarda to'xtab turishni, oxirgi bekatda to'xtab turishni nazorat qilish. Shahar ichi yo'nalishlarida avtobus haydovchilarini qoidabuzarliklarini hisobga olish va kunlik hisobot tayyorlash. O'quv amaliyoti: JPS tizimi orqali avtobuslarni belgilangan yo'nalish bo'yicha harakat grafigiga rioya qilishini nazorat qilish				
16	Shohbekatlardagi nozimlik ishlari	Auditoriya mashg'uloti: Yo'nalish nozimi vazifasi. Yo'nalish nozimi yo'riqnomasi. Yo'nalish nozimi hujjatlari. Yo'nalish nozimining avtobuslar harakatini boshqarish usullari.	10	6		4
17	Avtokorxonalarda harakat xavfsizligini ta'minlash	Auditoriya mashg'uloti: Harakat xavfsizligi bo'yicha belgilab berilgan qonun va me'yoriy hujjatlar. Harakat xavfsizligi bo'yicha haydovchilarga yo'riqnomalar berish. O'quv amaliyoti: Haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil etish. Haydovchilarni yo'nalishlarda nazorat qilish.	12	4	6	2
Jami			210	90	60	60

O'quvchilar bilimini baholash mezonlari

O'quvchilarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

o'quvchi mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

o'quvchi mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

o'quvchi olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

o'quvchi fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Harf tizimida baholash	Ballarning raqamli ekvivalenti	Foiz ko'rsatkichi	An'anaviy baholash
A	4,0	95-100	5 (A'lo)
A–	3,67	90-94	
B+	3,33	85-89	4 (Yaxshi)
B	3,0	80-84	
B–	2,67	75-79	
C+	2,33	70-74	
C	2,0	65-69	3 (Qoniqarli)
C–	1,67	60-64	
D+	1.33	55-59	2 (Qoniqarsiz)
D	1,0	50-54	

O'qitish natijalarini baholash

O'qitish natijalari	Baholash indikatorlari
1.Tashuvchi va buyurtmachi o'rtasida transport xizmatini ko'rsatish yuzasidan kontraktlar tuzish ko'nikmalariga ega bo'lishi.	Tashuvchi va buyurtmachi o'rtasida transport xizmatini ko'rsatish yuzasidan kontraktlar tuza olishi.
2.MCHJ faoliyatini davlat tomonidan tekshirishlarni o'tkazish va muvofiqlashtirish tartibini qo'llash	MCHJ faoliyatini davlat tomonidan tekshirishlarni o'tkazish va muvofiqlashtirish tartibini qo'llashi
3.Avtobuslarda tashishda ochiq tenderlarni tashkil etishi va aniqlashi.	Avtobuslarda tashishda ochiq tenderlarni tashkil etishi, aniqlashi tahlil va qila olishi.
4.Taksilarda yo'lovchilar tashishni tashkil etish usullarini bilishi.	Taksilarda yo'lovchilar tashishni tashkil etish usullarini qo'llay olishi
5.Avtobuslar harakatining va taksilarda tashishni nozimlik boshqaruvini tashkil etish	Avtomobillarni ishini tahlil qilish, hujjatlarni yurgazishi, mijozlar bilan shartnomalar tuzishi, tezkor rejalar tuzishi, haydovchilar mehnatini tashkil qilishi, yo'l varaqalarini rasmiylashtirishi;
6.Avtobuslar harakatini JPS tizimi orqali nazorat qilish va boshqarish	Avtobuslar harakatini JPS tizimi orqali nazorat qilish va boshqarishni amalga oshirishi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
PROFESSIONAL TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA MAXSUS KASBIY TA‘LIMINING
NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi	XIZMATLAR		
Ta‘lim sohasi	Xizmat ko‘rsatish sohasi		
Ta‘lim yo‘nalishi	Logistika		
Mutaxassislik nomi	Tashishlarni tashkil etish va transportni boshqarish (turlari bo‘yicha)		
Mutaxassislik kodi	51010504		
Kvalifikatsiya(lar) nomi:	1. Texnik; 2. «B» yoki «BC» toifali avtomobil haydovchi (maxsus avtotransport haydovchisi)		
Modul nomi	Ishlab chiqarish amaliyoti		
Modul kodi			
Modulga ajratilgan soat	Jami yuklama: 720 soat	Auditoriya mashg‘uloti: 600 soat	Mustaqil ta‘lim: 120 soat
ECTS-kreditlar miqdori	24		
Modul turi (<i>majburiy/tanlov</i>)	Majburiy		
Ta‘lim tili	Guruhga belgilangan o‘qitish tili asosida		

Toshkent – 2025

Modul o'quv dasturi umumiy talablari

Modul to'liq nomi	Ishlab chiqarish amaliyoti
Modulning maqsadi	O'zbekiston yuk transporti, yuk tashuvchi avtomobil transportini rivojlantirish masalalari, yuk tashuvchi avtomobil transporti va uning tarkibi, yo'nalish tarmog'i va turlari, uning tavsiflari, yo'nalishlarini ochish, avtomobil ishining tasarruf ko'rsatkichlari, haydovchilar mehnati va dam olishini tashkil etish usullari, yuk tashuvchi transport harakatining nozimlik boshqaruvi, uning ishini nazorat qilish asoslarini o'rgatish.
O'zlashtirish (o'qitish) natijalari	Transport va transport jarayoni. Yuk va yuk oqimi. Harakatlanuvchi tarkibdan foydalanishda yo'l sharoitlari. Harakatlanuvchi tarkibning texnik-tasarruf ko'rsatkichlari. Harakat tarkib harakatini tashkil qilish. Avtomobillarda yuk tashishni rejalashtirishda iqtisodiy-matematik usullar va EHMni qo'llash. Yuk tashishni tashkil qilish va tijorat ishlari. Yuk tashishga rahbarlik qilish. Yuk ortish-tushirish ishlarini tashkil qilish. Shaharlararo va xalqaro yuk tashishni tashkil qilish. Asosiy turdagi yuklarni tashish texnologiyasi. Avtomobillarda tashish texnologiyalarini o'zlashtirish. Transport vositalari harakatini tashkil etish. Avtokorxonalarda nozimlik boshqaruvi. Avtomobillarni yo'nalishga chiqishi va qaytishini nazorat qilish. Yo'lda ish bajarish jarayonida hujjatlarni to'ldirish.
Modul mazmuni	Avtotransport vositalarida yuk tashishning iqtisodiy samaradorligi. Yuk va yo'nalishda tashuvchi avtotransport vositalarining texnik-ekspluatatsiya ko'rsatkichlari. Yuklarni markazlashtirilgan holda tashishni tashkil qilish - yuk avtomobillaridan foydalanishning asosiy usuli. Turi xildagi yuklarni tashishni tashkil qilish. Maxsus harakatlanuvchi tarkiblar. Transport va transport jarayonlari, Yuklar va yuk oqimi, Harakatlanuvchi tarkibning texnik- tasarruf ko'rsatkichlari, Harakatlanuvchi tarkibning ishini tashkil qilish, Yuk tashishni tashkil qilishda iqtisodiy-matematik usullar, Yuk tashuvchi tashkilotlar ishini tashkil qilish, Yuklarni konteyner va paket usulida tashishni tashkil qilish, Shaharlararo va xalqaro yuk tashishni tashkil qilish, Turli xil xalq xo'jaligi yuklarini tashishni tashkil qilish.
Egallanadigan kompetensiyalar	Yuk avtomobillaridan foydalanishning asosiy usullaridan foydalangan holda tashishni tashkil qiladilar. Shaharlararo va xalqaro yuklarni tashishni tashkil qiladilar. Xavfsizlik texnikasi qoidalari va yong'inga qarshi vositalar hamda ulardan foydalanish qoidalari qo'llay oladilar.
Bilimlar	Transport va transport jarayoni haqida umumiy tushuncha; Yuklar va ularning turkumlari;

	<p>Yuk oqimlari va yuk punktlari; Avtomobillar ishi tasarruf ko'rsatkichlari; Avtomobillarga yuk ortish-tushirish ishlari; Yuk tashishni tashkil qilish; Yuk tashish yo'nalishlari va yuk oqimi; Haydovchilar mehnatini tashkil etish; Yuk ortish-tushirish ishini tashkil etish; Yuk tashishda nozimlik boshqarish qoidalari; Harakatlanuvchi tarkibdan foydalanishda yo'l sharoitlari; Harakatlanuvchi tarkibning texnik-ekspluatatsiya ko'rsatkichlari; Harakatlanuvchi tarkibning ishini tashkil qilish; Avtomobillarda tashishni rejalashtirishning iqtisodiy matematik usullari; Yuk tashishni tashkil etish va tijorat ishlari; Yuk tashishda operativ rahbarlik qilish; Avtomobil transportida ortish-tushirish ishlarini tashkil qilish va mexanizatsiyalash; Yuklarni konteynerlarda va paket usulida tashish; Shaharlararo va xalqaro yuk tashish; Korxonalar va aholiga asosiy tex ko'rsatishni tashkil etish; Asosiy turdagi yuklarni tashish texnologiyasini qo'llash.</p>
Ko'nikmalar	<p>Harakatlanuvchi tarkibdan foydalanishda yo'l sharoitlari baholashni o'rganish; Harakatlanuvchi tarkibning texnik-ekspluatatsiya ko'rsatkichlarini hisoblashni o'rganish; Harakatlanuvchi tarkibning ishini tashkil qilishni o'rganish; Haydovchilar mehnatini tashkil etishni o'rganish; Avtomobilda tashishni rejalashtirishning iqtisodiy matematik usullarini qo'llashni o'rganish; Yuk tashishni tashkil etish va tijorat ishlarini bajarishni o'rganish; Yuk tashishda operativ rahbarlik qilishni o'rganish; -avtomobil transportida ortish-tushirish ishlarini tashkil qilish va mexanizatsiyalashni o'rganish; Yuklarni konteynerlarda va paket usulida tashishni tashkil etishni o'rganish; Shaharlararo va xalqaro yuk tashishni tashkil etishni o'rganish; Korxonalar va aholiga transport ekspeditsiya xizmat ko'rsatishni tashkil etishni o'rganish.</p>
O'qitishni tashkiliy shakli	Kunduzgi
Baholash tartibi	Baholash bo'yicha amaldagi tartib asosida
Axborot manbalari	<ol style="list-style-type: none"> 1. J.R.Kulmuxamedov., K.M.Nazarov., Avtotransport vositalarida yo'lovchilar tashishni tashkil etish, Toshkent, 2016y. 2. Karimov E. Avtomobillarda yo'lovchilar tashish, Toshkent, "Sharq," 2015 y. 3. J.R.Kulmuxamedov. K.M.Nazarov. "Transport logistikasi" Toshkent 2018 yil.

	<p>4. N.Z.Arifjanova, M.F.Yoqubov. Avtomobillarda yuk va passajirlarni tashish asoslari (masalalar to'plami). T.: Fan, 2017y.</p> <p>5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportini boshqarish tizimini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi 09.06.2018 yil 434-sonli qarori.</p> <p>Rashidov.K.K. "Xalqaro ko'lamda yo'lovchi va yuk tashishning xuquqiy asoslari." Toshkent. 2014y.</p>
Ta'lim jarayoni tavsifi etiladigan jihozlar	Tashishni tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonun, qarorlari, yo'riqnomalar, dispecherlik faoliyatini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar va tegishli xujjatlar, shuningdek yuk ortish moslamalari, aravalar, uskunalar va boshqalar
Tuzuvchilar:	S.I.Boshmanov- Toshkent avtomobil va yo'llar texnikumi "Avtotransportda tashish" kafedrasini mudiri; M.R.Adhamova-Professional ta'limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi; N.F.Sultanov-Professional ta'limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi
Taqrizchilar:	J.B.Mirzaabdullayev-Toshkent davlat texnika universiteti "Energiya mashinasozligi va professional ta'lim" kafedrasini dotsenti
<p>O'quv dasturi Professional ta'limni rivojlantirish instituti "Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (transport turlari) yo'nalishlari bo'yicha o'quv-metodik birlashmasining 2025-yil 12-avgustdagi 4-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2025-yil 18-avgustdagi 4-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2025-yil 21-avgustdagi 316-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.</p>	

2. Modul o'quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Umumiy yuklama
1	Avtokorxonada texnika xavfsizligi qoidalarini o'rganish.	6
2	Transport korxonasi tashkiliy tuzilmasi va ish jarayoni bilan tanishish	6
3	Yuk tashuvlar bo'yicha buyurtmalarni qabul qilish va qayd etish tartibi	18
4	Yuk tashishga ruxsat beruvchi hujjatlarni to'ldirish va nazorat qilish (yo'l varaqasi, nakladnoy va b.)	24
5	Avtotransport vositasini yuk tashishga tayyorlash (texnik ko'rikdan o'tkazish)	36
6	Yuklarni avtomobilga joylashtirish va mahkamlash bo'yicha amaliy ishlar	36
7	Avtotransport vositasi harakatini monitoring qilish (GPS tizimi orqali)	36
8	Yuk tashish marshrutini tuzish va xarita asosida optimallashtirish ishlari	36

9	Real yuk tashish jarayonida haydovchi bilan birga kuzatuvchi sifatida qatnashish	36
10	Tashish jarayonida yukning holatini nazorat qilish va dalolatnoma tuzish	36
11	Transport vositasining yo'l varaqasi bo'yicha yo'l bosib o'tgan masofani hisoblash	42
12	Amaldagi yuk tashish tariflarini tahlil qilish va amaliy qo'llash	36
13	Yuk tashishdagi kechikishlar, muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha holatlarni tahlil qilish	36
14	Yuk tashish bo'yicha ekspeditorlik xizmatlarining faoliyatini kuzatish	42
15	Omborxonadagi yuklar harakatini kuzatish (kirim-chiqim hujjatlari bilan ishlash)	24
16	Tashishda ishtirok etuvchi barcha hujjatlarning to'g'ri yuritilishini tekshirish	36
17	Transportda yuklarning xavfsizligi va buzilish holatlarining oldini olish choralarini ko'rish	36
18	Transport vositalarining navbatchilik rejasini tuzish va bajarilishini tekshirish	36
19	Yuk tashishda yoqilg'i sarfini hisoblash va real ma'lumotlar bilan solishtirish	42
20	Tashishdan keyingi hisobotlarni tayyorlash va buxgalteriyaga topshirish tartibi	36
21	Amaldagi mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi talablariga rioya etilishini kuzatish	36
22	Transportda ekologik xavfsizlik talablarining bajarilishini nazorat qilish	36
23	Amaliyot davrida diplom ishi uchun yig'ilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va hisobotni rasmiylashtirish	12
Jami		720

O'quvchilar bilimini baholash mezonlari

O'quvchilarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

o'quvchi mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

o'quvchi mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

o'quvchi olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

o'quvchi fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Harf tizimida baholash	Ballarning raqamli ekvivalenti	Foiz ko'rsatkichi	An'anaviy baholash
A	4,0	95-100	5 (A'lo)
A–	3,67	90-94	
B+	3,33	85-89	4 (Yaxshi)
B	3,0	80-84	
B–	2,67	75-79	
C+	2,33	70-74	
C	2,0	65-69	3 (Qoniqarli)
C–	1,67	60-64	
D+	1.33	55-59	2 (Qoniqarsiz)
D	1,0	50-54	

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
PROFESSIONAL TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA MAXSUS KASBIY TA‘LIMINING
NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi	XIZMATLAR		
Ta‘lim sohasi	Xizmat ko‘rsatish sohasi		
Ta‘lim yo‘nalishi	Logistika		
Mutaxassislik nomi	Tashishlarni tashkil etish va transportni boshqarish (turlari bo‘yicha)		
Mutaxassislik kodi	51010504		
Kvalifikatsiya(lar) nomi:	2. «B» yoki «BC» toifali avtomobil haydovchi (maxsus avtotransport haydovchisi)		
Modul nomi	Yo‘l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi		
Modul kodi	5PM1041		
Modulga ajratilgan soat	Jami yuklama: 300 soat	Auditoriya mashg‘uloti: 210 soat	Mustaqil ta‘lim: 90 soat
ECTS-kreditlar miqdori	10		
Modul turi (<i>majburiy/tanlov</i>)	Majburiy		
Ta‘lim tili	Guruhga belgilangan o‘qitish tili asosida		

Toshkent – 2025

Modul o'quv dasturi umumiy talablari

Modul to'liq nomi	Yo'l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi
Modulning maqsadi	Bo'lajak avtomobil vositalari haydovchisiga yo'l harakati qoidalari, yo'llarda harakatlanish xavfsizligini ta'minlash, transport vositalarini xavfsiz boshqarish va yo'l transporti hodisasi sodir etilganda jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni o'rgatish.
O'zlashtirish (o'qitish) natijalari	Yo'l harakati qoidalari asoslarini, belgilari va ularning ahamiyatini tushunadi hamda amaliy hayotda qo'llay oladi. Harakat xavfsizligi tamoyillarini biladi, yo'l-transport hodisalarining oldini olish bo'yicha xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi. Favqulodda vaziyatlarda o'zini va boshqalarni himoya qilish chora-tadbirlari, birinchi yordam ko'rsatish asoslarini egallaydi.
Modul mazmuni	Yo'l harakati sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralarning yo'l harakati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari. Psixologiyaning shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari. Avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar. Avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishda psixik jarayonlarning o'rni Shaxsning hissiy-irodaviy jarayonlari haqida tushuncha. Muloqotning kommunikativ sohasi. Muloqotning perspektiv tomoni. Muloqot olib borish darajalari. Muloqot turlari. Ma'muriy javobgarlikning turlari (ogohlantirish, jarima, transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etish va h.k.). Ma'muriy jazoni qo'llaydigan idoralar, ularni ijro etish tartibi. Transport vositalarini mast holda boshqarish huquqbuzarligining yuridik tahlili. Yo'l harakati qoidalarining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi. Haydovchilarning umumiy majburiyatlari. Mexanik transport vositasi haydovchisining transport vositasini boshqarish vaqtida yonida olib yurishi shart bo'lgan hujjatlar. Transport vositasidan foydalanishga imkon berish shart bo'lgan holatlar. Yo'l belgilarining vazifasiga ko'ra guruhlariga bo'linishi. Yo'l belgilarining o'rnatilishiga qo'yiladigan umumiy talablar. Takroran, vaqtinchalik va mavsumiy o'rnatiladigan yo'l belgilari. Yo'l harakatini tashkil etishda yo'l chiziqlarining ahamiyati. Yo'l chiziqlarining vazifasiga ko'ra turlari. Svetofor turlari va ishoralarining ahamiyati va ishoralarga muvofiq haydovchi va piyodalarning harakati.

	<p>To'xtash va to'xtab turish. Chorrahalarda harakatlanish tartib, qoidalari. Piyodalar o'tish joylari va yo'nalishli transport vositalarining bekatlari.</p> <p>Temir yo'l kesishmalari orqali harakatlanish. Avtomagistrallarda harakatlanish. Turar joy dahalarida harakatlanish. Tik balandlik va nishabliklarda harakatlanish. Vatan, adolat, sadoqat, iftixor tushunchalari. Haydovchilarda vatanparvarlik fazilatining namoyon bo'lishi. Haydovchi odob-axloqi tushunchasi. Huquqiy madaniyat tushunchasi. Haydovchilik kasbiga qodirlik va munosiblik. Professional kasbiy yaroqlilik va mahorat. Haydovchining yo'l harakati qatnashchilari bilan so'zlashuv madaniyati. Yo'nalishli transport vositalari uchun alohida harakatlanish tasmasi mavjud bo'lgan yo'llarda harakatlanish tartibi. Yuk avtomobillarida odam tashishga qo'yiladigan talablar. Velosiped, moped va aravalarni boshqarish, shuningdek hayvonlarni haydab o'tishda qo'yiladigan umumiy talablar. Transport vositalarining texnik holati va jihozlarining normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi. Yuk avtomobilida nazorat tekshiruvi. Avtotransport vositasini to'xtab turish joyiga qo'yish. Yo'lning tor qismlarida harakatlanish. Avtotransport vositalarini turli yo'l sharoitlarida boshqarish bo'yicha ko'nikmalarini takomillashtirish. Yo'l-transport hodisasining turiga qarab jarohatlanish tasnifi. Qon ketishi haqida tushuncha. Tashqi va ichki qon ketish. Bog'lamlar tasnifi. Bog'lovchi materiallar. Leykoplastirli, yelimli, bintli, to'rli elastik bog'lamlarni qo'yish qoidalari. Terminal holatlarni aniqlash va ularning tasnifi. Shokning alomat va belgilari. Shikastlanganlarni tashish va transportirovka qilish: Bemor ahvolidning og'irlik darajasi va shikastlanish turiga qarab transportda tashish usulini tanlash.</p>
<p>Egallanadigan kompetensiyalar</p>	<p>Avtomobil vositalari haydovchisi yo'l harakati qoidalariga rioya qilgan holda, yo'llarda harakatlanish xavfsizligini ta'minlash, transport vositalarini xavfsiz boshqarish va yo'l transporti hodisasi sodir etilganda jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatadilar.</p>
<p>Bilimlar</p>	<p>– umumiy qoidalar asosiy tushunchalar, va terminlar, haydovchi, piyoda va yo'lovchilarning vazifalari;</p>

	<ul style="list-style-type: none"> - harakat tartibi transport vositalarini to'xtashi va to'xtab turish tartibi; - yo'l belgilari; - yo'lning qatnov qismidagi belgilar va ularning tasviri; - yo'llarda harakatni tartibga solish; - chorrhalardan o'tish; - piyodalarning o'tish joylari, umumiy foydalanadigan transport vositalarining to'xtash joylaridan va temir yo'l kesishmalaridan o'tish; - harakatning maxsus sharoitlari; - transport vositalarida odam va yuk tashish; - transport vositalarini texnik holati va jihozlari; - nomer va taniqlilik belgilari, ogohlantiruvchi yozuv va qurilmalar; - harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha avtotransport va boshqa tashkilotlar mansabdor shaxslarining vazifalari; - kolonnada harakatlanish. fuqaro mudofaasi bo'yicha haydovchilarning vazifalari; - kirish avtomobilni boshqarish jihozlaridan foydalanish texnikasi; - avtomobilni chegaralangan oraliqda boshqarish; - avtomobilni chorrhalarda va piyodalar o'tish joyida boshqarish; - avtomobilni transport oqimida boshqarish; - avtomobilni kunning qorong'i vaqtida va yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitlarda boshqarish; - avtomobilni murakkab va alohida yo'l sharoitlarida boshqarish; - avtomobilni tejamli boshqarish; - transport hodisasi; - haydovchining kasbiy ishonchliligi; - haydovchi mehnatining psixofiziologik asoslari; - haydovchining axloqiy xulqi; - avtomobildan foydalanish xususiyatlari; - yo'l sharoitlari; - avtotransport xo'jaliklarida harakat xavfsizligi xizmati ishlarini tashkil qilish; - haydovchining ishlash qobiliyatiga alkogol va narkotik moddalarining ta'siri; - umumiy vaziyatlar; - odam anatomiyasi va fiziologiyasi asoslarini; - hayot uchun xavfli holatlar va jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish; - yo'l-transport hodisalarida jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ketma-ketligi; - yo'llarda baxtsiz hodisa tufayli jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini
Ko'nikmalar	<ul style="list-style-type: none"> - umumiy qoidalar asosiy tushunchalar, va terminlar, haydovchi, piyoda va yo'lovchilarning vazifalari;

	<ul style="list-style-type: none"> - harakat tartibi transport vositalarini to'xtashi va to'xtab turish tartibi; - yo'l belgilari; - yo'lning qatnov qismidagi belgilar va ularning tasviri; - yo'llarda harakatni tartibga solish; - chorralardan o'tish; - piyodalarning o'tish joylari, umum foydalanadigan transport vositalarining to'xtash joylaridan va temir yo'l kesishmalaridan o'tish; - transport vositalarida odam va yuk tashish; - transport vositalarini texnik holati va jihozlari; - nomer va taniqlilik belgilari, ogohlantiruvchi yozuv va qurilmalar; - harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha avtotransport va boshqa tashkilotlar mansabdor shaxslarining vazifalari; - avtomobilni chorralarda va piyodalar o'tish joyida boshqarish; - avtomobilni transport oqimida boshqarish; - avtomobilni kunning qorong'i vaqtida va yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitlarda boshqarish; - avtomobilni tejamli boshqarish; - yo'l-transport hodisasi; - haydovchining kasbiy ishonchliligi; - haydovchi mehnatining psixofiziologik asoslari; - haydovchining axloqiy xulqi; - avtotransport xo'jaliklarida harakat xavfsizligi xizmati ishlarini tashkil qilish; - haydovchining ishlash qobiliyatiga alkogol va narkotik moddalarining ta'siri; - umumiy vaziyatlar; - odam anatomiyasi va fiziologiyasi asoslarini; - hayot uchun xavfli holatlar va jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish; - yo'l-transport hodisalarida jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ketma-ketligi; - yo'llarda baxtsiz hodisa tufayli jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kasbiy faoliyatini mustaqil bajarish
O'qitishni tashkiliy shakli	Kunduzgi
Baholash tartibi	Baholash bo'yicha amaldagi tartib asosida
Axborot manbalari	<ol style="list-style-type: none"> 1. J.Qulmuxamedov va boshq.Yo'l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi Niso poligraf 2017 2. Azizov K.X.va b. "Yo'l harakati qoidalari va xavfsizligi" .Toshkent-2008-yil. Chulpon-2009 yil 226-227 betlar. 3. Kulmuxamedov J.R. "Yo'l transport hodisasida shikastlanishlarda birinchi yordam ko'rsatish" Toshkent-2008-yil
Ta'lim jarayonida tavsiya etiladigan jihozlar	Yo'l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi belgilari, trenajyor, plakatlar, jumladan Yo'l belgilari, Identifikatsiya va ro'yxatga olish belgilari. Harakatni boshqarish uskunalari, Yo'l harakati

	boshqaruvchisi signallari, Favqulodda signalizatsiya va favqulodda vaziyat belgilari, Harakatning boshlanishi, manyovr qilish trenajerlar. Yo'lda transport vositalarining joylashuvi Stend, harakat tezligi belgilari, O'tib ketish, oldinga o'tish, yaqinlashib kelayotgan manyovr stendlari, To'xtash va to'xtash joyi Stendi, Chorrahalar orqali harakatlanish Stendi, Piyodalar o'tish joylari va to'xtash joylaridan o'tish, marshrut vositalari, Temir yo'l bo'ylab harakatlanish, Avtomobil yo'llarida haydash stendlari va boshqalar
Tuzuvchilar:	S.I.Boshmanov- Toshkent avtomobil va yo'llar texnikumi "Avtotransportda tashish" kafedrasini mudiri; M.R.Adhamova-Professional ta'limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi; N.F.Sultanov-Professional ta'limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi
Taqrizchilar:	SH.R.Odilov- Toshkent avtomobil va yo'llar texnikumi o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari A.Majidov- Toshkent shahridagi 7-sonli avtobus saroyida tasarruf bo'lim boshlig'i. t.f.n. dotsent
<p>O'quv dasturi Professional ta'limni rivojlantirish instituti "Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (transport turlari bo'yicha)" yo'nalishlari bo'yicha o'quv-metodik birlashmasining 2025-yil 12-avgustdagi 4-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2025-yil 18-avgustdagi 4-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2025-yil 21-avgustdagi 316-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.</p>	

2. Modul o'quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Umumiy yuklama	Auditoriya mashg'uloti	Mustaqil ta'lim
1	Kirish	Mamlakatimizda harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida	2	2	
I-bo'lim. Yo'l harakati qoidalari.			136		
2	Yo'l harakati sohasidagi qonunchilik asoslari.	Yo'l harakati sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Vazirlar Mahkamasi, Vazirlik va idoralarning qarorlari hamda me'yoriy-normativ hujjatlari	10	8	2

3	Haydovchining huquqiy javobgarligi.	Yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun belgilangan ma'muriy, fuqarolik hamda jinoiy javobgarlik me'yorlari. Avtomototransport vositalari egalari uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish.	10	8	2
4	Umumiy qoidalar. Qoidalarda qo'llaniladigan asosiy tushuncha va atamalar.	Umumiy qoidalar. Yo'l harakati qoidalarining tarixi. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda Qoidalarning o'rnini. Qoidalarning umumiy tuzilmasi. Qoidalarda qo'llaniladigan asosiy tushuncha va atamalar.	10	8	2
5	Yo'l harakati ishtirokchilarining vazifalari.	Mexanik transport vositasi haydovchisining yonida olib yurishi shart bo'lgan hujjatlar. Transport vositasidan foydalanishga imkon berish shart bo'lgan holatlar. Transport vositasining harakatlanishini taqiqlovchi shartlar.	10	8	2
6	Yo'l belgilari.	Yo'l harakatini tashkil etish. Yo'l belgilarining o'rnatilishiga qo'yiladigan talablar. Takrorlanuvchi, mavsumiy va vaqtinchalik umumiy tizimida yo'l belgilarining ahamiyati. Yo'l belgilarining guruhlarini	40	26	14
7	Yo'l chiziqlari.	Yo'l harakatini tashkil etishda chiziqlarning ahamiyati. Yo'l chiziqlarining turlari. Yotiq chiziqlar. Yotiq chiziqlarning vazifasi. Har bir yotiq chiziqning rangi va qo'llanish shartlari. Yotiq chiziqlarning talablariga muvofiq haydovchining xatti-harakati. Tik chiziqlar. Tik chiziqlarning vazifasi. Har bir chiziqning qo'llanish shartlari.	8	6	2
8	Harakatlanish tartibi, transport vositalarining to'xtashi va to'xtab turishi.	Ogohlantiruvchi ishoralar. Ogohlantiruvchi ishoralarning turlari va vazifasi. Yorug'lik ko'rsatkichi va qo'l bilan beriladigan ogohlantiruvchi ishoralarni berish qoidalari. Quvib o'tishda beriladigan ogohlantiruvchi ishoralar. Tovush ishoralaridan foydalanish ruxsat etilgan holatlar. Ogohlantiruvchi ishoralarni berish qoidalariga rioya etmaslikning xavfli oqibatlarini.	30	20	10
9	Yo'l harakatini tartibga solish.	Svetofor ishoralarining ahamiyati. Svetofor yoki tartibga soluvchining taqiqlovchi ishoralarida to'xtash tartibi. Tartibga soluvchining ishora va ko'rsatmalari svetoforning ishorasi, yo'l belgilari va chiziqlariga zid kelgan holatlarda haydovchi va piyodalarning harakati.	10	8	2
10	Chorrahalarda harakatlanish.	Chorrahalarda harakatlanishning umumiy qoidalari. Tramvay haydovchilari imtiyozga ega bo'lgan holatlar.	15	12	3

		Tartibga solingan chorrahalar. Svetofor ishoralari bilan imtiyoz belgilarining o'zaro munosabati. Tartibga solingan chorrahalarda harakatlanish tartibi va ketma-ketligi. Tartibga solinmagan chorrahalar. Teng ahamiyatga ega bo'lmagan yo'llar kesishgan chorrahalarda harakatlanish tartibi. Teng ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar kesishgan chorrahalarda harakatlanish tartibi.			
11	Piyodalar o'tish joylari, yo'nalishli transport vositalarining bekatlari va temir yo'l kesishmalari orqali harakatlanish.	Piyodalar o'tish joylari, yo'nalishli transport vositalarining bekatlari. Tartibga solinmagan piyodalar o'tish joyiga, yo'nalishli transport vositalarining bekatiga yoki "Bolalar guruhini tashish" taniqlilik belgilari o'rnatilgan transport vositasiga yaqinlashib kelayotgan haydovchining vazifalari.	20	12	8
12	Harakatlanishning alohida shartlari.	Avtomagistrallarda harakatlanish. Avtomagistrallarda kiritilgan taqiqlar. Avtomagistrallarning qatnov qismida va qatnov qismining chetini bildiruvchi chiziqdan o'ng tomonda majburan to'xtagan haydovchilarning vazifalari. Turar joy dahalarida harakatlanish	9	8	1
13	Odam va yuklarni tashish.	Yuk avtomobillarida odam tashishga qo'yiladigan talablar. Harakatni boshlashdan oldin haydovchining vazifalari. Bolalarni tashishda qo'yiladigan qo'shimcha talablar. Odamlarni tashish taqiqlangan holatlar. Transport vositasida yuk tashishda yukni joylashtirish va mahkamlash qoidalari. Transport vositasining o'lchamlaridan chiqib turadigan yuklarni tashish va belgilanishi.	7	6	1
14	Transport vositalarining texnik holati va jihozlanishi.	Umumiy talablar. Transport vositalaridan foydalanish taqiqlangan nosozliklar va shartlar. Transport vositalaridan foydalanish taqiqlangan nosozliklar aniqlanganda haydovchining vazifalari. Yo'l harakati xavfsizligiga tahdid soladigan nosozliklari bo'lgan transport vositalaridan foydalanishning xavfli oqibatlari.	10	8	2
15	Raqam va taniqlilik belgilari, ogohlantiruvchi qurilmalar, yozuvlar va belgilar. Velosiped va aravalarni harakatlanishi, shuningdek, hayvonlarni haydab	Transport vositalarini raqam va taniqlilik belgilari, ogohlantiruvchi qurilmalar bilan jihozlanishiga bo'lgan talablar. Transport vositalarining raqam va taniqlilik belgilari, ogohlantiruvchi qurilmalarni o'rnatish qoidalarga amal qilmaslikning xavfli oqibatlari.	10	8	2

	o'tishga doir qo'shimchalar.	Velosiped va aravalarni harakatlanishi, shuningdek, hayvonlarni haydab o'tishga doir qo'shimchalar.			
	II-bo'lim. Avtotransport vositalarini xavfsiz boshqarish va harakat xavfsizligi asoslari		60		
16	Haydovchi faoliyatining psixofiziologik asoslari.	Haydovchining axborotni sezish kanallari – ko'rish, eshitish va sezish. Ruhij jarayonlar haqida tushuncha (diqqat, xotira, fikrlash, psixomotorika, his etish va qabul qilish) va ularning avtotransport vositasini boshqaruviga ta'siri. Avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishda individual psixologik xususiyatlar, jarayonlar va psixologik bilimlarning o'rne va ahamiyati. Haydovchilarning muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi	14	10	4
17	Haydovchi madaniyati etikasi. va	Vatanparvarlik va halollik, haydovchining umuminsoniy fazilati. Haydovchining madaniyati – yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning axloqiy asosi. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda haydovchining huquqiy madaniyati. Haydovchilik kasbiga qo'yiladigan talablar va ularning mohiyati. Haydovchining kasbiy muvofiqligi va mahorati. Yo'l-transport hodisasini oldini olishda haydovchining madaniyati. Etika haqida tushuncha. Haydovchining etika me'yorlari. Turli yo'l sharoitlarida avtomototransport vositasini boshqarish madaniyati. Haydovchining yo'l harakati qatnashchilari bilan so'zlashuv madaniyati Haydovchining yo'l harakati qatnashchilari bilan munosabatlarida nizolarning oldini olish va murosaga kelishishning o'rn.i	40	26	14
18	Yo'llarda xavfsiz harakatlanishda "Avtomobil – Haydovchi – Yo'l – Piyoda – Muhit" tizimining ahamiyati	Yo'llarda xavfsiz harakatni tashkil etishning asosiy vazifalari. Avtomobil yo'llarida xavfsiz harakatlanishda "Avtomobil – Haydovchi – Yo'l – Piyoda – Muhit" tizimini mexanik, biologik va biometrik ko'rsatkichlar bo'yicha toifalanishi.	3	2	1
19	Yo'l sharoitlari va zaruriyatdan kelib chiqib, yo'lga chiqishni rejalashtirish.	Yo'l harakatining sharoitidan kelib chiqqan holda yo'lga chiqish zaruriyatini baholash: kunduzi yoki qorong'i paytda, yetarlicha ko'rinmaslik sharoitida, harakatning tig'iz paytida, qatnov qismi qoplamasining holatidan kelib chiqib va h.k.	3	2	1
20	Avtotransport vositasini boshqaruvida	Oldindagi masofa ko'rinishining uchta asosiy zonasi: uzoq (30-120 soniya), o'rta (12-15 soniya) va yaqin (4-6 soniya). Yo'ldagi	3	2	1

	kuzatishni tashkillashtirish, qabul qilinayotgan axborotning xavflilik darajasini baholash.	sharoitning o'ziga xosligini oldindan bilish uchun ko'rinishning uzoq masofasidan, xatarning xavflilik darajasini bilish uchun o'rta masofasidan va xavfdan himoyalaniшни boshlash uchun yaqin masofasidan foydalanish.			
21	Avtotransport vositasini boshqarish texnikasi.	Haydovchining avtotransport vositasiga o'tirishi. Haydovchining optimal ish holatini ta'minlash uchun o'rindiqni rostdash va boshqaruv organlaridan foydalanish qulayligini tekshirish.	3	2	1
22	Avtotransport vositasini boshqarishda haydovchining harakatlari.	Tormozlanish va to'xtash yo'lini baholash. Turli xil tezliklarda avtotransport vositasining atrofida xavfsiz makonni shakllantirish. Haydovchining reaksiya vaqti. Tormoz yuritmasining ish vaqti.	3	2	1
23	Transport vositalarining foydalanish ko'rsatkichlari.	Transport vositasi ishini samarali va xavfsiz bajarish bo'yicha mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar: gabarit o'lchamlari, vazn parametrlari, yuk ko'tarish qobiliyati (yo'lovchilar tashish imkoniyati), tezlik va tormoz xususiyatlari, ag'darilishga, surilib ketishga va yon tomonga sirpanishga qarshi turg'unligi, yoqilg'i tejamkorligi, har xil sharoitlarda foydalanishga moslashish, ishonchlilik.	2	2	
24	Aktiv va passiv xavfsizlik tizimlari.	Aktiv xavfsizlik tizimlarining vazifasi va harakat vaqtida ulardan foydalanish. Passiv xavfsizlik tizimlarining vazifasi va yo'l-transport hodisasi yuz berganda afzalligi.	3	2	1
25	Avtotransport vositasini transport oqimida boshqarish va qorong'ida ko'rish yetarlicha bo'lmagan sharoitlarda boshqarish	Transport oqimida xavfsiz yon oraliqni tanlash. To'siqni aylanib o'tishda avtotransport vositasini boshqarish. Quvib o'tishda avtotransport vositasini boshqarish. Qorong'ida harakat xavfsizligini ta'minlash. Qorong'ida va har xil ob-havo sharoitida avtotransport vositasini boshqarish.	3	2	1
26	Murakkab vaziyatlarda haydovchining harakatlari.	Harakatni boshlashda, tormozlashda va burilishda avtotransport vositasi turg'unligining yo'qolishi. Avtotransport vositasining harakatlanishi jarayonida ag'darilib ketish holatlari. Harakatlanish jarayonida avtotransport vositasi turg'unligini saqlash usullari.	3	2	1
27	To'xtab turish joylari va ularda harakatlanish.	Avtomobillashtirish va to'xtab turish joylariga bo'lgan talablar. To'xtab turish joylari va ularning turlari. Yer osti, ko'p qavatli va boshqa turdagi to'xtab turish joylari. Avtotransport vositasini to'xtab	3	2	1

		turish joylariga qo'yish bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari.			
28	Yo'l-transport hodisalari.	Yo'l-transport hodisasi to'g'risida tushuncha. Yo'l-transport hodisalarining turlari. Yo'l-transport hodisasining kelib chiqishi sabab va sharoitlari. Yo'l-transport hodisalarining statistikasi. Yil mavsumlari, haftaning kunlari, sutkaning vaqti, yo'lning toifalari, transport vositalarining turlari va boshqa faktorlar bo'yicha yo'l-transport hodisalarining taqsimlanishi.	3	2	1
III -bo'lim. Yo'l-transport hodisasida jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish			12		
29	Yo'l-transporti hodisalari oqibatida jarohatlanishlarning umumiy tasnifi. Yo'l-transport hodisasida jabrlanuvchilarga tibbiy yordam ko'rsatishning huquqiy asoslari.	Yo'l-transport hodisasining turiga qarab jarohatlanish tasnifi. Avtomobil salonidan tashqarida va avtomobil salonida jarohatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari. Transport vositalarining xavfsizlik vositalari bilan jihozlanishi. YTH oqibatida halok bo'lganlar uchun haydovchi, tibbiyot xodimi, qutqaruv va boshqa xizmat xodimlarining javobgarligi.	2	2	
30	Odam anatomiyasi va fiziologiyasi.	Odam organizmining tuzilishi va ishlashi to'g'risida asosiy tushunchalar. Yurak-qon tomirlari, nafas olish, asab va tayanch-harakat tizimlari.	3	2	1
31	Terminal holat. Shok, o'tkir nafas yetishmovchiligi, asfiksiya, hushni yo'qotish sindromi Yurak-o'pka reanimatsiyasini o'tkazish.	Terminal holatlarni aniqlash va ularning tasnifi. Shokning alomat va belgilari. Zaharlanishlarda birinchi yordam. Hayot va o'lim holatlarining alomatlari, hayot alomatlari mavjudligida reanimatsiyasi (jonlantirish) bo'yicha xatti-harakatlar. Jabrlanuvchi holatining og'irligini baholash va yurak-o'pka reanimatsiyasini o'tkazish bo'yicha ko'rsatkichlarni aniqlash. Mustaqil nafas olish funksiyasini tiklash. Og'iz bo'shlig'ini tozalash, yuqori nafas olish yo'llaridan havo o'tishini ta'minlash. "Og'izdan-og'izga", "Og'izdan-burunga" usullari orqali sun'iy nafas berishni o'tkazish. Havo o'tkazuvchi vositadan foydalanish usuli.	4	2	2
32	Qon oqishi va uni to'xtatish usullari. Jarohatlanishda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Yarani tozalash va uni	Qon ketishi haqida tushuncha. Tashqi va ichki qon ketish. Arterial, venoz, kapillyar va aralash qon ketish turlari. Qon oqishini to'xtatish usullari (barmaq bilan bosish, siquvchi bog'lam, jgut va buragich-jgutni qo'yish). Burundan, quloqlardan va og'iz	4	2	2

	bog'lash (desmurgiya).	bo'shlig'idan qon oqishini to'xtatishning o'ziga xos xususiyatlari. O'pkada va qorin bo'shlig'ida qon oqishi belgilariga shubha bo'lsa, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish			
33	Bintli bog'lamlarning turlari va ularni qo'yish qoidalari. Transport immobilizatsiyasi	Tananing turli qismlariga bog'lam qo'yish usullari. Shaxsiy bog'lovchi paketdan foydalanish qoidalari. Transport immobilizatsiyasining umumiy prinsiplari. Turli xil shikastlanishlarda transport immobilizatsiyasini qo'yishning o'ziga xos xususiyatlari va qo'llaniladigan vositalar. Transport immobilizatsiyasini qo'yishdagi tipik xatolar va asoratlari.	4	2	2
34	Yo'l-transport hodisasida jabrlanuvchilarni davolash muassasasiga transportirovka qilishning o'ziga xosligi. Tibbiy qutichadan foydalanish qoidalari.	Shikastlanganlarni tashish va transportirovka qilish. Jabrlanuvchilarni zambilda tashish qoidalari. Jabrlanuvchilarni qo'lda tashish usullari. Turli xildagi shikastlanishlarda tashishning o'ziga xos xususiyatlari. Tashishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli xil jarohatlarning oldini olish. Tibbiy qutichaning tarkibi. Tibbiy quticha tarkibidagi vositalardan foydalanish.	2	2	
Jami			300	210	90

O'quvchilar bilimini baholash mezonlari

O'quvchilarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

o'quvchi mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

o'quvchi mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

o'quvchi olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

o'quvchi fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Harf tizimida baholash	Ballarning raqamli ekvivalenti	Foiz ko'rsatkichi	An'anaviy baholash
A	4,0	95-100	5 (A'lo)
A-	3,67	90-94	
B+	3,33	85-89	4 (Yaxshi)
B	3,0	80-84	
B-	2,67	75-79	
C+	2,33	70-74	
C	2,0	65-69	3 (Qoniqarli)
C-	1,67	60-64	
D+	1,33	55-59	2 (Qoniqarsiz)
D	1,0	50-54	

O'qitish natijalarini baholash

O'qitish natijalari	Baholash indikatori
Avtomobil vositalari haydovchisi yo'l harakati qoidalariga rioya qilgan holda, yo'llarda harakatlanish xavfsizligini ta'minlash, transport vositalarini xavfsiz boshqarish va yo'l transporti hodisasi sodir etilganda jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatadilar	<ol style="list-style-type: none"> Umumiy qoidalar asosiy tushunchalar, va terminlar, haydovchi, piyoda va yo'lovchilarning vazifalari va harakat tartibi transport vositalarini to'xtashi va to'xtab turish tartibi bo'yicha tushunchaga ega bo'ladi; Yo'l belgilari, yo'lning qatnov qismidagi belgilar va ularning tasviri tariflay oladi va tahlil qiladi; Yo'llarda harakatni tartibga solish, chorrahalardan o'tish, piyodalarning o'tish joylari, umumiy foydalanadigan transport vositalarining to'xtash joylaridan va temir yo'l kesishmalaridan o'tish bo'yicha ko'nikmalar hosil bo'lishi; Harakatning maxsus sharoitlari, transport vositalarida odam va yuk tashish tamoyillarini bilishi; transport vositalarini texnik holati va jihozlari; Nomer va taniqlilik belgilari, ogohlantiruvchi yozuv va qurilmalari bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish; Kolonnada harakatlanishni amalga oshirishi, avtomobilni transport oqimida boshqarishi; Avtomobilni kunning qorong'i vaqtida va yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitlarda boshqarishi va avtomobilni murakkab va alohida yo'l sharoitlarida boshqarishi; Transport hodisasi, haydovchining ishlash qobiliyatiga alkogol va narkotik moddalarining ta'sirini;

	<p>9.Yo'l-transport hodisalarida jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ketma-ketligi; 10.Yo'llarda baxtsiz hodisa tufayli jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari asosida qo'llay olishi.</p>
--	---

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
PROFESSIONAL TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA MAXSUS KASBIY TA‘LIMINING
NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi	XIZMATLAR		
Ta‘lim sohasi	Xizmat ko‘rsatish sohasi		
Ta‘lim yo‘nalishi	Logistika		
Mutaxassislik nomi	Tashishlarni tashkil etish va transportni boshqarish (turlari bo‘yicha)		
Mutaxassislik kodi	51010504		
Kvalifikatsiya(lar) nomi:	2. «B» yoki «BC» toifali avtomobil haydovchi (maxsus avtotransport haydovchisi)		
Modul nomi	“B” va “C” toifadagi avtotransport vositalarining tuzilishi va ularga texnik xizmat ko‘rsatish		
Modul kodi	5PM0013		
Modulga ajratilgan soat	Jami yuklama: 120 soat	Auditoriya mashg‘uloti: 80 soat	Mustaqil ta‘lim: 40 soat
ECTS-kreditlar miqdori	4		
Modul turi (<i>majburiy/tanlov</i>)	Majburiy		
Ta‘lim tili	Guruhga belgilangan o‘qitish tili asosida		

Toshkent – 2025

Modul o'quv dasturi umumiy talablari

Modul to'liq nomi	“B” va “C” toifadagi avtotransport vositalarining tuzilishi va ularga texnik xizmat ko'rsatish
Modulning maqsadi	Respublikamizda avtomobil transportining rivojlanish bosqichlari va avtomobil sanoatini barpo qilish muammolari, avtomobillar klassifikatsiyasi, avtomobil va dvigatellarning tuzilishi va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha bilimlarni shakllantirish.
O'zlashtirish (o'qitish) natijalari	<p>“B” va “C” toifadagi avtotransport vositalarining asosiy qismlari va tizimlarini tushunadi, ularning ishlash prinsiplarini biladi.</p> <p>Avtotransport vositalariga servis xizmat ko'rsatish jarayonlarida zarur bo'lgan texnik ishlarni mustaqil bajaradi, xavfsizlik qoidalariga amal qiladi.</p> <p>Texnik hujjatlarni o'qiydi va avtomobil xizmat ko'rsatishda diagnostika usullarini qo'llay oladi, nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi.</p>
Modul mazmuni	<p>Avtotransport vositalarida yuk tashishning iqtisodiy samaradorligi.</p> <p>Yuk va yo'nalishda tashuvchi avtotransport vositalarining texnik-ekspluatatsiya ko'rsatkichlari.</p> <p>Yuklarni markazlashtirilgan holda tashishni tashkil qilish - yuk avtomobillaridan foydalanishning asosiy usuli.</p> <p>Turi xildagi yuklarni tashishni tashkil qilish. Maxsus harakatlanuvchi tarkiblar. Qurilish materiallarini tashish.</p> <p>Yuk avtomobillarida yo'lovchilarni tashish. Yuk avtomobillaridan foydalanish usullari. Yuklarni eng yaqin yo'llardan tashish. Shaharlararo va xalqaro yuklarni tashish. Konteynerlarda yuklarni tashish. Yuk avtomobillarida yuklarni tashishning tannaxini kamaytirish yo'llari.</p> <p>Tashishlarga dispetcherlik rahbarligining tizimi. Dispetcherlik rahbarligining markazlashgan va alohida tizimlari.</p> <p>Yo'nalishdan qaytganda yo'l yoki yo'nalish varaqasi va tovar-transport hujjatlarini rasmiylashtirish va topshirish. Haydovchilar ishini tezkor hisobga olish.</p> <p>Haydovchi ish o'rnining ergonomikasi. Xavfsizlik texnikasi qoidalari. Yong'inga qarshi vositalar va ulardan foydalanish qoidalari.</p>
Egallanadigan kompetensiyalar	Yuk avtomobillaridan foydalanishning asosiy usullaridan foydalangan holda tashishni tashkil qiladilar. Shaharlararo va xalqaro yuklarni tashishni tashkil qiladilar. Xavfsizlik texnikasi qoidalari va yong'inga qarshi vositalar hamda ulardan foydalanish qoidalarini qo'llay oladilar.
Bilimlar	<ul style="list-style-type: none"> - avtotransport vositalarining umumiy tuzilishini; - dvigatellarning umumiy tuzilishi va ularga texnik xizmat ko'rsatishni; - dvigatel mexanizm, tizimlari tuzilishi va texnik xizmat ko'rsatishni;

	<p>-o't oldirish, elektr ta'minoti va ishga tushirish tizimiga texnik xizmat ko'rsatishni;</p> <p>- transmissiyaning vazifasi, tuzilishi, ishlashi va texnik xizmat ko'rsatishni;</p> <p>- yurish qismining tuzilishi va texnik xizmat ko'rsatishni;</p> <p>-avtomobillarni ekspluatatsion xususiyatlarini;</p> <p>- boshqarish organlarining vazifasi va tuzilishini bilish,.</p>
Ko'nikmalar	<p>- dvigatellarning umumiy tuzilishi va ishlash jarayonini;</p> <p>- dvigatel mexanizm va tizimlari tuzilishi, texnik xizmat ko'rsatish va ishlash jarayonini;</p> <p>-akkumulyator, generator va startyor tuzilishi va texnik xizmat ko'rsatish jarayonini;</p> <p>- transmissiyaning tuzilishi, texnik xizmat ko'rsatish va ishlash jarayonini;</p> <p>- yurish qismining tuzilishi, texnik xizmat ko'rsatish va ishlash jarayonini;</p> <p>- boshqarish organlarining tuzilishi, texnik xizmat ko'rsatish va ishlash jarayonini;</p> <p>-avtomobillar harakatida ta'sir etuvchi omillarni;</p> <p>barcha turdagi avtomobillarni tuzilishini bo'laklarga bo'lib, amaliy mashg'ulotlarni mustaqil ravishda bajarish ko'nikmasiga ega bo'lish.</p>
O'qitishni tashkiliy shakli	Kunduzgi
Baholash tartibi	Baholash bo'yicha amaldagi tartib asosida
Axborot manbalari	<ol style="list-style-type: none"> 1. O.U.Salimov "Avtomobillarni tuzilishi, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash", "Ilm Ziyo" Toshkent-2014yil. 2. A.Muxitdinov, J.Qulmuxamedov "Transport vositalarining tuzilishi", "Ta'lim nashriyoti" Toshkent-2019yil. 3. G'.N.Maxmudov "Avtotransport vositalarining elektr jihozlari", "Ilm Ziyo" Toshkent-2014yil. 4. A.I.Komilov, Q.A.Sharipov, N.T.Umirov, Z.Yu.Yusupov "Traktor va avtomobillar", "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi" Toshkent-2007yil. 5. A.Muxitdinov, V.Sattivaldiev, Sh.Xakimov "Transport vositalarining tuzilishi", "Ta'lim nashriyoti" Toshkent-2014yil. 6. D.I.Xoshimov "GM-Uzbekistan avtomobillarning konstruksiyasi", "Avtomsan" Toshkent-2017yil.
Ta'lim jarayonida tavsiya etiladigan jihozlar	Avtomobil maketi, diagnostika uchun qurilma, chilangarlik uskunasi, dvigatel, avtomobilning asosiy uzatmasi, injektor va dizel jihozlari, stendlarda tekshirish ishlari, akkumulyator batareyalari va boshqalar, doska, markerlar to'plami.
Tuzuvchilar:	<p>Sh.M.Shousmonov- Toshkent avtomobil va yo'llar texnikumi "Avtotransportda tashish" kafedrasini mudiri;</p> <p>M.R.Adhamova-Professional ta'limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi;</p> <p>N.F.Sultanov-Professional ta'limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi</p>

Taqrizchilar:	SH.R.Odilov- Toshkent avtomobil va yo'llar texnikumi o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari A.Majidov- Toshkent shahridagi 7-sonli avtobus saroyida tasarruf bo'lim boshlig'i. t.f.n. dotsent
<p>O'quv dasturi Professional ta'limni rivojlantirish instituti "Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (transport turlari bo'yicha)" yo'nalishlari bo'yicha o'quv-metodik birlashmasining 2025-yil 12-avgustdagi 4-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2025-yil 18-avgustdagi 4-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2025-yil 21-avgustdagi 316-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.</p>	

2. Modul o'quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Umumiy yuklama	Auditoriya mashg'uloti	Mustaqil ta'lim
I BO'LIM. "B" va "C" toifadagi avtotransport vositalarining tuzilishi					
1	"B" va "C" toifadagi avtotransport vositalarining umumiy tuzilishi	Yuk va yengil avtomobillarning vazifasi va tasnifi. Umumiy tuzilishi. Asosiy agregat, uzellar, mexanizmlar va tizimlarning vazifasi, joylashishi va o'zaro bog'lanishi. Avtotransport vositalarining qisqacha texnik tavsiflari. Boshqaruv organlari. Haydovchini axborot bilan ta'minlaydigan vositalar. Boshqarishni avtomatlashtirish tizimlari. Avtomobil salonida shinamlikni yaratish va ta'minlash vositalari. Elektromobillarning umumiy tuzilishi.	6	4	2
2	Dvigatelning umumiy tuzilishi va asosiy ko'rsatkichlari.	Benzin va dizel yoqilg'isida ishlaydigan dvigatellarning vazifasi, tuzilishi va ishlash prinsipi. Suyultirilgan neft gazi va siqilgan tabiiy gazda ishlaydigan dvigatellar. Krivoship-shatun mexanizmining vazifasi, tuzilishi va ishlashi. Gaz taqsimlash mexanizmining vazifasi, tuzilishi va ishlashi.	6	4	2
3	Sovitish tizimi	Sovitish tizimining vazifasi va turlari. Sovitish tizimining ishlash sxemasi. Sovitish suyuqliklari va ularga qo'yiladigan talablar. Dvigatelning	6	4	2

		issiqlik rejimi. Sovitish tizimidagi asboblarning vazifasi va joylashishi. Dvigatelni ishga tushirishdan oldingi qizdirish vositalari.			
4	Moylash tizimi	Moylash tizimining vazifasi. Moylash tizimining ishlash sxemasi. Detallarning ishqalanish yuzalariga moyni uzatish usullari. Dvigatellarda qo'llaniladigan moylar, ularning asosiy xususiyatlari va rusumlanishi. Moyning bosimini nazorat qilish. Dvigatelda moyni sovitish va tozalash usullari.	6	4	2
5	Ta'minlash tizimi	Turli xildagi (benzin, dizel va gaz) yoqilg'ilarda ishlaydigan dvigatellar ta'minlash tizimining vazifasi, tuzilishi va ishlashi. Avtomobil dvigatellari uchun qo'llaniladigan yoqilg'ilarning turi, tasnifi va xususiyatlari. Ta'minlash tizimining sxemalari. Yoqilg'ini, havoni tozalash va uzatish asboblarining vazifasi, joylashishi, umumiy tuzilishi va ishlashi.	6	4	2
6	Elektr energiyasining manbalari va iste'molchilari	Akkumulyator batareyasining vazifasi va turlari. Akkumulyator batareyalarining rusumlanishi va xususiyatlari. Elektrolit va u bilan ishlaganda ehtiyot choralari. Akkumulyator batareyalariga xizmat ko'rsatish. Generatorning vazifasi, tuzilishi va ishlashi. Startyorning vazifasi, tuzilishi va ishlashi. O't oldirish tizimining vazifasi, tuzilishi va ishlashi. Tashqi yorug'lik asboblari, yorug'lik va tovush ishorasi, nazorat-o'lchov asboblari, oyna tozalagich va oyna yuvgichlar, salonnii isitish va shamollatish tizimlarining vazifasi va ishlashi.	6	4	2
7	Transmissiyaning vazifasi va umumiy tuzilishi	Transmissiyaning vazifasi va umumiy tuzilishi. Turli yuritmalii transmissiyalarning sxemalari. Bir va bir nechta yetaklovchi o'qli transmissiyalarning sxemalari. Transmissiya agregatlarini, uzellarini va detallarini moylash usullari. Transmissiya moylari va surkov moylar, ularning qo'llanishi, asosiy xususiyatlari va rusumlanishi.	6	4	2

		<p>Ilashish mexanizmi, uning vazifasi, umumiy tuzilishi va ishlashi. Mexanik va gidravlik yuritmalilashish mexanizmining tuzilishi va ishlashi. Ilashish mexanizmining yuritmasini sozlash.</p> <p>Uzatmalar qutisining vazifasi. Uzatmalar qutisining turlari. Uzatmalar nisbati. Uzatmalarni almashtirish mexanizmining sxemasi. Uzatmalar qutisining umumiy tuzilishi va ishlashi. Uzatmalarni bo'luvchi va demultiplikatorning vazifasi, tuzilishi va ishlashi. Bo'luvchi va demultiplikatorga ega uzatmalar qutisidan foydalanish. Sinxronizatorning vazifasi, ishlash prinsipi, tuzilishi va ishlashi.</p> <p>Taqsimlash qutisining vazifasi, tuzilishi va ishlashi. Quvvat olish qutisining vazifasi, tuzilishi va ishlashi. Taqsimlash va quvvat olish qutisini qo'shish mexanizmlarini tuzilishi.</p> <p>Avtomat uzatmalar qutisining tuzilishi va ishlashi.</p> <p>Kardan uzatmasi va yetaklovchi g'ildiraklar yuritmalarining vazifasi, tuzilishi va ishlashi. Asosiy uzatma, differensial va yarim o'qlar.</p> <p>Turli xildagi transmissiyalardan foydalanishning xususiyatlari. Transmissiyada sodir bo'ladigan nosozliklar, ularning alomatlar va sabablari, ularni bartaraf etish usullari.</p>			
8	Yurish qismi	<p>Yurish qismi. Ramaning vazifasi va umumiy tuzilishi. Oldingi boshqariladigan ko'prik. Osmalarning turlari. Amortizatorlarning vazifasi va ishlashi. Oldingi osmaning vazifasi va tuzilishi. Oldingi osma detallarining ishlashi. Oldingi g'ildiraklarning o'rnatilish burchagi. Orqa osmaning tuzilishi va ishlashi.</p> <p>G'ildiraklar va shinalarning tuzilishi. G'ildiraklarning mahkamlanishi. Shina va disklarning rusumlanishi. Shinalardagi havo bosimining me'yorlari. Shinalardagi havo bosimini rostlash tizimi.</p>	6	4	2

		Kabinaning turlari. Kabinaning tayanchi. Yukxona. O'zi ag'dargich avtomobillari tuzilishining o'ziga xosligi. Shatakka oladigan qurilma. Egarli-ulovchi qurilma. Lebedka.			
9	Tormoz tizimi	Tormoz tizimlarining vazifasi va turlari. Tormoz tizimlarining sxemasi va ishlash prinsipi. Gidravlik yuritmal tormoz tizimining tuzilishi va ishlashi. Tormoz suyuqliklari, ularning xususiyati va rusumlanishi. Pnevmatik yuritmal tormoz tizimining tuzilishi va ishlashi. Pnevmatik yuritmal tormoz tizimidagi havo bosimining nazorati. Yordamchi tormoz tizimining vazifasi, tuzilishi va ishlashi. Tormoz tizimidagi nosozliklar, ularning alomatlari va sabablari.	6	4	2
10	Rul boshqarmasi	Rul boshqarmasining vazifasi, joylashishi, umumiy tuzilishi va ishlashi. Rul mexanizmi, rul yuritmasi, rul boshqarmasining kuchaytirgichi, boshqariladigan g'ildiraklar yuritmasi. Rul boshqarmasiga qo'yiladigan asosiy talablar. Rul boshqarmasidagi nosozliklar, ularning alomatlari va sabablari.	6	4	2
11	Aktiv va passiv xavfsizlik tizimlari	Aktiv xavfsizlik tizimlarining turlari: g'ildiraklarni jilmay aylanishiga qarshi, sirpanib tormozlanishiga qarshi tizimlar, tormoz kuchlarini taqsimlash tizimi va boshqalar. Parktronik tizimi. Vazifasi va ulardan harakatlanishda foydalanish. Haydovchining passiv xavfsizligi. Xavfsizlik kamarlari, xavfsizlik yostiqlari, bolalarni ushlab turuvchi maxsus qurilmalar. Ularning vazifasi va yo'l-transport hodisasi yuz berganda afzalligi.	6	4	2
II BO'LIM. "B" va "C" toifadagi avtotransport vositalariga servis xizmat ko'rsatish					
12	"B" va "C" toifadagi avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatishning turlari va davriyligi	Foydalaniladigan materiallar va ularning vazifasi. Shinalar va akkumulyator batareyalarini muddatdan oldin ishdan chiqishi va ekspluatatsion materiallarining jadal sarfini keltirib chiqaruvchi sabablar.	4	2	4

		Shinalar va akkumulyator batareyalarining ishlatilish muddatlari. Avtomobillarda yonilg'i sarfining me'yorlari. Havo harorati past bo'lganda, tog'lik hududlarda va og'ir yo'l sharoitlarida yonilg'i sarfining miqdorlari. Motor va transmission moylar, yopishqoq surkovlar va maxsus suyuqliklar sarfining me'yorlari. Shina va akkumulyator batareyalarining ishlatish muddatlarini uzaytirish, yonilg'i-moylash va ekspluatatsion materiallar sarfini tejash usullari.			
13	Xavfsizlik texnikasi va atrof-muhitni muhofaza qilish	Avtotransport vositalarini ekspluatatsiyasida xavfsizlikka qo'yiladigan asosiy talablar. Chiqindi gazlar, benzin va har xil ekspluatatsion suyuqliklar bilan zaharlanish xavfi. Elektr jihozlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalari. Texnik xizmat ko'rsatish va mayda nosozliklarni tuzatishda mehnat muhofazasi. Yuk ortish, tushirish va tashishda hamda shinalarni yechish va montaj qilishda mehnat xavfsizligi. Yong'in xavfsizligi va yong'inni o'chirish qoidalari. Avtotransport vositasini ekspluatatsiya qilishda va ta'mirlashda atrof-muhitni saqlash bo'yicha qilinadigan asosiy ishlar. Avtomobildan ishlab chiqarilayotgan gazlarning miqdori va zaharlilik darajasini kamaytirish bo'yicha bajariladigan ishlar.	4	2	4
14	"B" va "C" toifadagi avtotransport vositalarida amalda uchraydigan nosozliklar va ularni bartaraf qilish usullari	Dvigatel ishga tushmayapti. Dvigatelni ishlashida turli xil shovqinlar mavjud. Chiqayotgan chiqindi gazlardagi tutunning ko'rinishi (ko'k, qora, oq). Dvigatelning qizib ketishi. Dvigateldagi moy bosimining pasayib ketishi. Dvigatel to'liq quvvatga erisha olmayapti. Rul chambaragingin erkin aylanishi ortib ketgan. Rul chambaragi qiyinchilik bilan aylanmoqda.	30	20	10

	<p>Tormozlanish samaradorligi yetarli emas.</p> <p>G'ildiraklarning tormozlanishdan keyingi holati bir xil emas.</p> <p>Tormozlashda avtomobil yonga surilib yoki sirpanib ketmoqda.</p> <p>Amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan ko'nikmalar quyidagilardan iborat:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Sovitish tizimining texnik holatini tekshirish. Sovitish suyuqligining sathini tekshirish. - Moylash tizimining texnik holatini tekshirish. Moy sathini tekshirish. - Ta'minlash tizimining texnik holatini tekshirish. Havo tozalovchining filtrlovchi elementini almashtirish. - Oldingi osmaning texnik holatini tekshirish. - Shinalardagi havo bosimini tekshirish. G'ildirakni almashtirish. - Rul chambaragidagi lyuftni tekshirish. - Gidravlik va pnevmatik yuritmal tormoz tizimining zichligini tekshirish. Tormoz yo'lini aniqlagan holda tormoz tizimining holatini baholash. - Akkumulyator batareyasining holatini tekshirish. - Nosoz elektr lampalari va eruvchan saqlagichlarni (predoxranitel) almashtirish. - O't oldiruvchi shamlarning (svecha) holatini tekshirish va ularni almashtirish. - Dvigatel yuritma tasmalarining tarangligini tekshirish va ularni almashtirish. - To'xtab turish tormozining holatini tekshirish va uning yuritmasini rostlash. - Kabinani isitish, shamollatish va havoni konditsionerlash tizimlarini tekshirish. <ul style="list-style-type: none"> - Oyna ko'targichlar, peshoynalarni oyna tozalagich va oyna yuvgich moslamalarining sozligini tekshirish. 			
Jami		120	80	40

O'quvchilar bilimini baholash mezonlari

O'quvchilarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

o'quvchi mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

o'quvchi mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

o'quvchi olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

o'quvchi fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Harf tizimida baholash	Ballarning raqamli ekvivalenti	Foiz ko'rsatkichi	An'anaviy baholash
A	4,0	95-100	5 (A'lo)
A-	3,67	90-94	
B+	3,33	85-89	4 (Yaxshi)
B	3,0	80-84	
B-	2,67	75-79	
C+	2,33	70-74	
C	2,0	65-69	3 (Qoniqarli)
C-	1,67	60-64	
D+	1,33	55-59	2 (Qoniqarsiz)
D	1,0	50-54	

O'qitish natijalarini baholash

O'qitish natijalari	Baholash indikatorlari
1. Ish jarayonida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasini bilish hamda amalda qo'llay oladi.	1. Mehnat muhofazasi bo'yicha umumiy qoidalarni bilish; 2. Birlamchi o't o'chirish vositalari va ularni ishlata olish; 3. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish va ularni tekshira olish.

	4. Elektr toki urganda va boshqa baxtsiz hodisalarda jabrlanuvchiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.
2.Dvigatel tizim va mexanizmlarga texnik xizmat ko'rsatadi va joriy ta'mirlashni bajara oladi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Krivoship–shatun mexanizmi tuzilishi vazifasini, ishlash prinsipini bilish. 2. Gaz taqsimlash mexanizmi tuzilishi vazifasini, ishlash prinsipini bilish. 3. Dvigatel tizimlarini tuzilishi vazifasini, ishlash prinsipini bilish. 4. Dvigatel tizimlariga texnik xizmat ko'rsatadi va joriy ta'mirlash ishlarini bajara olishini. 5.Dvigatel mexanizmlariga texnik xizmat ko'rsatadi va joriy ta'mirlash ishlarini bajara olishi
3. Avtomobil transmissiyaga texnik xizmat ko'rsatadi va joriy ta'mirlay oladi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Transmissiyani tuzilishi va turlari bila olishi; 2. Transmissiyani qismlarga ajratish va yig'ishi ketma-ketligini bajara olishi; 3.Transmissiyaga texnik xizmat ko'rsatadi va joriy ta'mirlash ishlarini bajara olishi
4.Avtomobilni yurish qismini tashxislash, texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlashni tashkil eta oladi.	<ol style="list-style-type: none"> 1.Yurish qismini tuzilishi, turlari va ishlash prinsipini bilish; 2.Yurish qismini tashxislash ishlarini bajarishi; 4.Avtomobilni yurish qismiga, texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash ishlari.
5.Avtomobil boshqarish mexanizmlarini tashxislash, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini bajara oladi	<ol style="list-style-type: none"> 1.Rul boshqarmasini tuzilishi, turlari va ishlash prinsipini bilish; 2.Tormoz boshqarmasini tuzilishi, turlari va ishlash prinsipini bilish; 3.Rul va tormoz boshqarmasini qismlarga ajratish va yig'ish hamda joylashuvini bilishi; 4.Avtomobilni yurish qismini tashxislash, texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlay olishi.
6.Avtomobilning kuzov va kabinalarini tashxislash, texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlashni ishlarini bajara oladi.	<ol style="list-style-type: none"> 1.Avtomobilning kuzov va kabinalarini tuzilishi, turlari va ishlash prinsipini bilish; 2. Avtomobilning kuzov va kabinalarini tashxislashni bilishini; 3.Avtomobilning kuzov va kabinalarini, texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlashni ishlarini bajarishi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA MAXSUS KASBIY TA’LIMINING
NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi	XIZMATLAR		
Ta’lim sohasi	Xizmat ko’rsatish sohasi		
Ta’lim yo’nalishi	Logistika		
Mutaxassislik nomi	Tashishlarni tashkil etish va transportni boshqarish (turlari bo’yicha)		
Mutaxassislik kodi	51010504		
Kvalifikatsiya(lar) nomi:	1. Texnik; 2. «B» yoki «BC» toifali avtomobil haydovchi (maxsus avtotransport haydovchisi)		
Modul nomi	Ekologiya va atrof muhit muhofazasi		
Modul kodi	5PM0225		
Modulga ajratilgan soat	Jami yuklama: 60 soat	Jami yuklama: 30 soat	Jami yuklama: 30 soat
ECTS-kreditlar miqdori	2		
Modul turi (<i>majburiy/tanlov</i>)	Tanlov		
Ta’lim tili	Guruhga belgilangan o’qitish tili asosida		

Modul o'quv dasturi umumiy talablari

Modul to'liq nomi	Ekologiya va atrof muhit muhofazasi
Modulning maqsadi	Ekologik ong va madaniyatini yuksaltirish uchun ekologiyaning ilmiy-nazariy asoslarini ta'lim yo'nalishiga mos ravishda ularga bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.
O'zlashtirish (o'qitish) natijalari	Inson jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar hozirgi zamon global va mintaqaviy muammolar, biosfera va noosfera haqidagi ta'limot, ekologik qonuniyatlar to'g'risida, ekologik ta'lim va tarbiya asoslari va ekologik madaniyat to'g'risida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>
Modul mazmuni	<ul style="list-style-type: none"> - Ekologik omillar, ekotizim va ularning tasniflanishi; - atmosfera havosining ekologik funksiyasi; - ijtimoiy ekologiya masalalari; - ekologik ta'lim tarbiya; - ekologik ekspertiza va ekologik monitoring; - atrof muhitning global muammolari; - O'zbekistonda atrof muhitni muhofaza qilishning huquqiy masalalari; - O'zbekiston respublikasida ekologik siyosat; - tabiiy resurslarni oqilona boshqarish asoslari va ulardan foydalanish; - fan-texnika taraqqiyoti, ekologiya, salomatlik; - sanoat ekologiyasi; - avtotransport va yo'llardan foydalanganda ekotizimlarga ta'siri; - transport vositalaridan chiqayotgan zaharli gazlarni atrof-muhitga ta'siri; - atrof muhitga yetkazilgan ziyonni iqtisodiy baholash.
Egallanadigan kompetensiyalar	UK-1, UK-7, UK-9, UK-10. KK-2, KK-3, KK-4;
Bilimlar	<ul style="list-style-type: none"> - iqlim o'zgarishi kelib chiqish sabablarini, uni oldini olish va moslashuv tadbirlari; - mehnat muhofazasi sohasidagi asosiy qoidalari; - avtomobil transportida mehnat muhofazasini boshqarish asoslari; - texnikani ishlab chiqarishdagi mehnat muhofazasi bo'yicha mansab yo'riqnomasi; - ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish tartibi; - ishchi xodimlarga zararli va xavfli ishlab chiqarish omillarini ta'sirini oldini olish qoidalari; - zararli moddalar bilan ishlashda ko'riladigan xavfsizlik chora-tadbirlari; - ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigiyenasi qoidalari; - avtomobillarga TXK va T ishlarini bajarish paytidagi xavfsizlik texnikasi qoidalari;

	<ul style="list-style-type: none"> - «Davsanoatatomnazaorati» va «Boshdavquvvatnazorati» nazoratidagi joylarda ishlashdagi xavfsizlik qoidalari; - yong'in xavfsizligi qoidalari; - atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun asoslari; - atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni <i>bilishi va ulardan foydalana olish</i>;
Ko'nikmalar	<ul style="list-style-type: none"> - ekologik inqirozlar va ularni oldini olish to'g'risida, ekologik holatni baholash va uni sog'lomlashtirish tadbir choralari asoslash; - biosferani va uni elementlarini (havo, suv, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosini, manzaralarni) muhofaza qilish usullari va chora tadbirlarini qo'llash; - atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatda bo'lish; - mashinalar, mexanizmlar, moslamalar va asbob-uskunalarining xavfsizlik holatini tekshirish; - xavfli yuklar bilan muomala qilish; - birlamchi o't o'chirish vositalaridan foydalanish; - avtomobillar ishlab chiqargan gazlardagi zararli moddalar miqdorini o'lchash; - avtomobil dvigatellardan chiqqan gazlarning zaharliligi va tutunliligini sozlash bo'yicha mustaqil bajarish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak.
O'qitishni tashkiliy shakli	kunduzgi
Baholash tartibi	Baholash bo'yicha amaldagi tartib asosida
Axborot manbalari	<p>1. G'.Yormatov, Yo.Isamuxamedov Mehnatni muhofaza qilish: "O'zbekiston" Toshkent -2002-yil. 2.V.A.O'rmonov, Q.M.Sidiqnazarov, A.M.Turg'unov Hayotiy faoliyat xavfsizligi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent 2012-yil</p> <p>2. O'.Yo'ldoshev, O.Rahimov, R.Xo'jaqulov, O.Hasanova Mehnat muhofazasi va texnika havsizligi "Davriy nashriyoti" 2013-yil</p> <p>3. P.Sultonov Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari "Musiqqa" nashriyoti Toshkent 2007-yil.</p> <p style="text-align: center;">Internet saytlari</p> <p>1. https://www.uznature.uz/ru</p> <p>2. https://gov.uz/oz/eco/news/view/21977</p> <p>3. https://kitobhon.com/oz/kitob/mehnat-muhofazasi-va-tehnika-xavfsizligi</p> <p>4. https://staff.tiame.uz/storage/users/595/books/HwwH44ZTaNy3mNZp28F11Oy94JnGBuU1VYyZrHTm.pdf</p>
Ta'lim jarayonida tavsiya etiladigan jihozlar	Elektron doska, fan bo'yicha tarqatma-didaktik materiallar, raqamli ta'lim resurslari, videoroliklar
Tuzuvchilar:	R.J.Mahkamov- Toshkent avtomobil va yo'llar texnikumi "Avtomobillar" kafedrasi mudiri; M.R.Adhamova-Professional ta'limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi;

	N.F.Sultanov-Professional ta'limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi
Taqrizchilar:	J.B.Mirzaabdullaev-Toshkent davlat texnika universiteti "Energiya mashinasozligi va professional ta'lim" kafedrası dotsenti
<p>O'quv dasturi Professional ta'limni rivojlantirish instituti "Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (transport turlari) yo'nalishlari bo'yicha o'quv-metodik birlashmasining 2025-yil 12-avgustdagi 4-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va INNOVATSIYALAR vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2025-yil 18-avgustdagi 4-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2025-yil 21-avgustdagi 316-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.</p>	

2. Modul o'quv dasturi mazmuni

No	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Umumiy yuklama	Auditoriya mashg'uloti	Mustaqil ta'lim
1.	"Ekologiya va atrof muhit muhofazasi" fanining maqsadi, vazifalari va rivojlanish tarixi	"Ekologiya va atrof muhit muhofazasi" fanining hozirgi zamon tushunchasi va uning vazifalari. BMT ning "Munosib mehnat" dasturining asosiy mazmuni. Organizmning issiqlik balansi. Ekologiya, tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishda nazariy asoslari. Ekologiyaning tarixi. Noosfera g'oyasi.	4	2	2
2.	Ekologik omillar	Muhit va moslanish tushunchalari. Ekologik omillar va ularning klassifikatsiyasi. Abiotik omillar. Biotik omillar. Antropogen omillar. Muhit tevarak-atrof haqida tushunchalarini boyitishi.	4	2	2
3.	Ekotizim va ularning tasniflanishi	Ekotizim va ularning tasniflanishi ekosistemadagi energiya oqimi va ekosistemaning mahsuldorligi. biogeotsenzlar haqida ma'lumot. Ekosistemadagi ekologik piramida. Ekosistemalarning tuzilishi.	4	2	2
4.	Atmosfera havosining ekologik funksiyasi	Atmosfera tarkibi va tuzilishi. Atmosfera havosini ifloslovchi (transport misolida) manbalar. Atmosfera ifloslanishining oqibatları. Atmosfera havosini ifloslanishdan muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlar. O'zbekistonda atmosfera havosini muhofaza qilish tadbirlari. Atmosfera havosi	4	2	2

		ifloslanishining kishi organizmiga ta'siri. Atmosfera ifloslanishining o'simlik va hayvonlarga ta'siri. Atmosfera ifloslanishining suv resurslariga ta'siri.			
5.	Ijtimoiy ekologiya masalalari	Ijtimoiy ekologiyaning fan sifatida shakllanishi. Insoniyat-qulaylik, transport-tabiat. Ma'naviy madaniyat tizimida ijtimoiy ekologiyaning o'рни. Ijtimoiy ekologiya masalalari. Ijtimoiy ekologiyaning tadqiqot doirasi. Ijtimoiy tabiiy taraqqiyot. Ekologik jamiyat.	4	2	2
6.	Ekologik ta'lim tarbiya	O'zbekistonda ekologik ta'limni rivojlanish tarixi. O'zbekistonda ekologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha qilinayotgan ishlar. Tabiat ustidan hukmronlik, insoniyat uchun falokat. Ekologik ong shakllantirishning mohiyati.	4	2	2
7.	Ekologik ekspertiza va ekologik monitoring	Davlat ekologik ekspertizasi va uning asosiy maqsadi. Sanoat korxonalarini loyihalash, qurish, tabiatga ta'sirini tahlil qilib borish. Avtotransport vositalarini texnik sozligi nazorati. Davlat ekologik ekspertizasini tashkil qilish, o'tkazish, hujjatlarga bo'lgan talablar va uning xulosalari. Respublikada avtomobil vositalarini tabiatga zarari bo'yicha ekologik monitoring.	4	2	2
8.	Atrof muhitning global muammolari	Tabiiy muhit va inson. Hozirgi zamon global ekologik muammolar. Barqaror rivojlanish va atrof muhit. Xalqaro konvensiyalar. Avtomobil ishlab chiqarish, litosferani ifloslantiruvchi kimyoviy manbalar, ma'naviy eskirishni tabiatga ta'sirini baholash. Real ekologik salbiy oqibatlar.	4	2	2
9.	O'zbekistonda atrof muhitni muhofaza qilishning huquqiy masalalari	Ekologiya qonunlari. ekologiya va hadislar. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ekologik qarashlari. Atrof muhitni muhofaza qilish tizimlari va qonunchiligi. O'zbekistonda transport sohasi, uning tabiat muhofazasi yo'lida amalga oshirayotgan ishlari. Inson omilining tabiiy muhitga ta'siri.	4	2	2
10.	O'zbekiston Respublikasida ekologik siyosat	Mustaqillikdan keyingi yillarda ekologik vaziyatni yaxshilash ishlari. Ekologik harakatning vujudga kelish sabablari. Ekologik harakatning vazifalarini aniqlash.	4	2	2
11.	Tabiiy resurslarni oqilona boshqarish asoslari va ulardan foydalanish	Insoniyatning butun umri davomida yashash muhitiga tekin tabiiy boyliklarning tuganmas manbai tarzida qaralib kelingan. Tabiiy resurslar va ularning turlari. Tabiiy resurslarni oqilona boshqarish. Avtomobil sanoatida	4	2	2

		tabiiy resurslar. Atrof muhitga zarar tushunchasi.			
12.	Fan-texnika taraqqiyoti, ekologiya, salomatlik	Fan-texnika yutuqlarini xo'jalik faoliyatiga tatbiq etishda jamiyat va tabiatning uyg'un holda rivojlanishi katta ahamiyatga egadir. atrof-muhit holati va inson salomatligi. Muhitning kimyoviy zaharlanishi. Biologik zaharlanish. shovqin-suronning inson salomatligiga ta'siri. Oziq-ovqat mahsulotlari va inson salomatligi.	4	2	2
13.	Sanoat ekologiyasi	Atmosfera havosini sun'iy ifloslanishdan tozalash. Sanoat korxonalarida zararli moddalar, ularni tozalovchi uskunalar. Yonilg'i quyish shoxobchalarini joylashtirish. Neft va neft kimyo sanoati. Atmosfera havosini toza saqlashda avtotransport gazlarini, dudlarini kamaytirish. Fotosintez jarayoni.	4	2	2
14.	Avtotransport va yo'llardan foydalanganda ekotizimlarga ta'siri	Avtotransport atrof-muhitni ifloslantirish sifatida. Avtotransport tashlanma gazlarining tarkibi. Avtomobil yo'llarini qurish va ekspluatatsiyasi vaqtida ekologik muammolar.	4	2	2
15.	Transport vositalaridan chiqayotgan zaharli gazlarni atrof-muhitga ta'siri va yetkazilgan ziyonni iqtisodiy baholash	Zaharli gazlarni aniqlash. Transport vositalaridan chiqayotgan zaharli gazlarni atrof-muhitga ta'sirini baholash. Zaharli gazlarning inson hayotiga ta'siri. Atrof muhitga yetkazilgan ziyonni iqtisodiy baholash. Ekologik inqiroz. Tabiat va jamiyatning o'zaro aloqasi. Inson tabiatning bir bo'lagi. Avtotransport vositasidan chiqayotgan zaharli gazlarni atmosferaga singishi, tabiatni qayta tiklash. Tabiatda aylanma harakat.	4	2	2
	Jami:		60	30	30

O'quvchilar bilimini baholash mezonlari

O'quvchilarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

o'quvchi mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

o'quvchi mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

o'quvchi olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

o'quvchi fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Harf tizimida baholash	Ballarning raqamli ekvivalenti	Foiz ko'rsatkichi	An'anaviy baholash
A	4,0	95-100	5 (A'lo)
A–	3,67	90-94	
B+	3,33	85-89	4 (Yaxshi)
B	3,0	80-84	
B–	2,67	75-79	
C+	2,33	70-74	
C	2,0	65-69	3 (Qoniqarli)
C–	1,67	60-64	
D+	1.33	55-59	2 (Qoniqarsiz)
D	1,0	50-54	

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
PROFESSIONAL TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA MAXSUS KASBIY TA‘LIMINING
NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi	XIZMATLAR		
Ta‘lim sohasi	Xizmat ko‘rsatish sohasi		
Ta‘lim yo‘nalishi	Logistika		
Mutaxassislik nomi	Tashishlarni tashkil etish va transportni boshqarish (turlari bo‘yicha)		
Mutaxassislik kodi	51010504		
Kvalifikatsiya(lar) nomi:	1. Texnik; 2. «B» yoki «BC» toifali avtomobil haydovchi (maxsus avtotransport haydovchisi)		
Modul nomi	Texnikaviy chizmachilik		
Modul kodi	5PM0894		
Modulga ajratilgan soat	Jami yuklama: 60 soat	Auditoriya mashg‘uloti: 30 soat	Mustaqil ta‘lim: 30 soat
ECTS-kreditlar miqdori	2		
Modul turi (<i>majburiy/tanlov</i>)	Majburiy		
Ta‘lim tili	Guruhga belgilangan o‘qitish tili asosida		

Modul o'quv dasturi umumiy talablari

Modul to'liq nomi	Texnikaviy chizmachilik
Modulning maqsadi	Chizmalarni davlat standartlari talabiga muvofiq bajarish va texnik chizmalarni o'qish, geometrik chizmachilik, geometrik sirtlarni aksonometrik proyeksiyalarini yasash, proyeksion chizmachilik, texnik rasmlar chizish, usullari va yig'ish chizmalarining zamonaviy texnik vositalaridan foydalangan xolda chizishni o'rgatish.
O'zlashtirish (o'qitish) natijalari	Texnikaviy chizmachilik fani o'quvchilarga texnikaviy g'oyalarni chizmalar vositasida bayon etishni, shuningdek berilgan chizmalar orqali texnik buyumlarni ishlash prinsiplarini tushunishni va konstruktorlik hujjatlarini rasmiylashtirishning asosiy qoidalarini o'rgatadi. Chizmalarga qarab to'liq fikr yuritish, ularni ishlab chiqarish hujjatlari sifatida bilish, Texnikaviy chizmachilikdan yetarli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish, tegishli mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha barcha texnik fanlarni mukammal o'rganish, chizmalarni to'g'ri chizish va uni o'qishni bilish.
Modul mazmuni	Chizmalarga oid standartlar, formatlar, masshtablar va chizma chiziqlari, chizma shriftlari, o'lcham qo'yish qoidalari. chizmaning asosiy yozuvi, tutashmalar va lekalo egri chiziqlari, nuqta, to'g'ri chiziq va tekisliklar, ortogonal proyeksiyalarni qayta tuzish usullari, aksonometrik proyeksiyalar, modellarning kompleks chizmasi, tekis shakl va geometrik jismlarning texnik rasmlarini qurish, ko'rinishlar, asosiy va qo'shimcha ko'rinishlar, qirqim va uning turlari, oddiy va murakkab qirqimlar Kesim va uning turlari, detallarning ish chizmalari, tishli uzatmalar, buyumning yig'ish chizmasi
Egallanadigan kompetensiyalar	Chizmalarni davlat standartlari talabiga muvofiq bajarish va texnik chizmalarni o'qish, geometrik chizmachilik, geometrik sirtlarni aksonometrik proyeksiyalarini yasash, proyeksion chizmachilik, texnik rasmlar chizish, usullari va yig'ish chizmalarining zamonaviy texnik vositalaridan foydalangan xolda chizish kompetensiyasi shakllantiriladi.
Bilimlar	<ul style="list-style-type: none"> - Masshtab va o'lchamlar; - Nuqtani proyeksiyasi va tekisliklar; - Aksonometrik proyeksiya turlari; - Geometrik jismlarni tekislik bilan kesishuvi; - Tekis shakl va geometrik jismlarning rasmlari; - Mashinasozlik chizmalarida tasvirlar; - Ko'rinishlar, qirqimlar va kesimlar; - Ajraladigan va ajralmaydigan birikma turlari va chizmalari; - Rezbalarni tasvirlash; - Detailning eskizini bajarish usullari; - Yig'ish chizmasi uning vazifasi va ishlab chiqarishdagi o'rni; - Yig'ish chizmalariga spetsifikatsiyalar tuzish; - Mutaxassislik bo'yicha chizmalar.

Ko'nikmalar	<ul style="list-style-type: none"> - Chizmalarni chizish texnikasiga ega bo'lish; - Chizmalarni davlat standartlari (*ds va khum) talablariga muvofiq bajarish; - Geometrik sirtlarning proyeksiyalarini tasavvur qila bilish; - Detallarni aksonometrik proyeksiyalarini yasash; - Detallarni ichki qismlarini qirqim va kesimlarda ko'rsatib berish; - Ajraladigan va ajralmaydigan birikmalarni chizish; - Mashina detallarini eskizlarini chizish; - Buyum yig'ish chizmalarni chizish; - Mutaxassislik chizmalarni chizish va ularni o'qiy olish.
O'qitishni tashkiliy shakli	Kunduzgi
Baholash tartibi	Baholash bo'yicha amaldagi tartib asosida
Axborot manbalari	<ol style="list-style-type: none"> 1. K.Madumarov, A.Norqulov Texnikaviy chizmachilik Niso poligraf 2017 y. 2. E.Ruziyev va boshqalar Chizmachilik (topshiriqlar to'plami) Ilm Ziyoy 2015 y. 3. Y.Ibragimov Texnikaviy chizmachilik va elektron sxemalarni o'qish Ilm Ziyoy 2015 y. 4. A.Umronxo'jayev, Sh.Jumanov "Mashinasozlik va qurilish chizmachiligi" 2005y 5. YE.I.Ro'ziyev, A.O.Ashirboyev "Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi" 2010 y. 6. J.Y.Yodgorov, A.X.Narzullayev "Mashinasozlik chizmachiligi" 2009 y. 7. A.Ashirboyev-"Chizmachilik" Yangi nashr 2008 y.
Ta'lim jarayoni tavsifa etiladigan jihozlari	Modulga oid stendlar , plakatlar, jadvallar, flipchart doska, markerlar to'plami ,chizg'ichlar , qalamlar to'plami, o'lchov asboblari, oddiy doska, va boshqalar.
Tuzuvchilar:	S.I.Boshmanov- Toshkent avtomobil va yo'llar texnikumi "Avtotransportda tashish" kafedrasini mudiri; M.R.Adhamova-Professional ta'limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi; N.F.Sultanov-Professional ta'limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi
Taqrizchilar:	G'.Ubaydullaev -TAYLQEI t.f.n. dostent S.Ziyaev-2-sonli Avtobus saroyi Bosh muhandisi
<p>O'quv dasturi Professional ta'limni rivojlantirish instituti "Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (transport turlari) yo'nalishlari bo'yicha o'quv-metodik birlashmasining 2025-yil 12-avgustdagi 4-sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2025-yil 18-avgustdagi 4-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2025-yil 21-avgustdagi 316-sonbuyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.</p>	

1. Modul o'quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Umumiy yuklama	Auditoriya mashg'uloti	Mustaqil ta'lim
1	Kirish. Chizmalarga oid standartlar. Formatlar. Masshtablar va chizma chiziqlari. Chizma shriftlari	Chizmachilikda foydalaniladigan chizma asboblarning vazifalari va ulardan foydalanishni bilish. Davlat standarti haqida tushuncha, ularni chizmalarda qo'llanilishi va belgilanishi. Chizmalarni chizishda foydalaniladigan chiziq turlari, vazifalari va ularning parametrlari. Chizma shriftlari. Chizmalarda asosiy yozuvlarni yozishda davlat standartlari tomonidan qabul qilingan shriftlardan foydalanish. Chiziq turlarini chizish va asosiy yozuvlarni shriftda bajarishni mashq qilish. O'quvchilarni chizma chiziqlari, yozuvlarini chizishda bilim ko'nikma va malakasini rivojlantirish.	4	2	2
2	O'lcham qo'yish qoidalari. Chizmaning asosiy yozuvi.	O'lcham qo'yish qoidalari. O'lcham haqida tushuncha, o'lcham turlari va ularning qo'llanilishi. Chizmalarga standart talablari bo'yicha o'lchamlar qo'yish. Chizmaning asosiy yozuv qismi (burchak shtampi)ni chizish, rasmiylashtirish va chizmani taxt qilish.	4	2	2
3	Tutashmalar va lekalo egri chiziqlari.	Tutashmalar va ularning turlari (ichki, tashqi va aralash). Tashqi, ichki va aralash tutashmalarni yasash. Tutashmalarning amaliy ahamiyati ya'ni buyumlarda uchraydigan tutashmalar. Lekalo chizg'ichi va undan foydalanish. Lekalo egri chiziqlari haqida tushuncha. Konus kesimlari: parabola, giperbola va ellips. Konus kesimlarining hosil bo'lishi. Lekaloning texnikadagi amaliy ahamiyatini tushuntirish. Tutashma va lekalo egri chiziqlarining bir-biridan farqi.	4	2	2
4	Nuqta, to'g'ri chiziq va tekisliklar. Ortogonal proyeksiyalarni qayta tuzish usullari.	Nuqta, to'g'ri chiziq va tekisliklar haqida. To'g'ri chiziqlarning o'zaro vaziyatlari. Tekisliklarning hosil bo'lishi va nomlanishi. Nuqtaning ikki va uchta proyeksiyalar tekisligiga proyeksiyalash. Tekislikdagi proyeksiyalarning belgilanishi. Proyeksiyalovchi tekisliklar. Tekislikda joylashgan nuqta va to'g'ri chiziqning proyeksiyalari. To'g'ri chiziqning tekislik bilan	4	2	2

		kesishishi. Tekisliklarni o'zaro kesishuvi. Proyeksiyalarni o'zgartirish usullari. Aylantirish usuli. To'g'ri chiziq kesmasini haqiqiy uzunligini aylantirish usuli bilan topish. Jipslashtirish usuli. Proyeksiyalar tekisligini almashtirish usuli. To'g'ri chiziq va tekis geometrik shakllarni proyeksiyalarini o'zgartirish usullari bilan haqiqiy kattaligini topish.			
5	Aksonometrik proyeksiyalar.	Aksonometrik proyeksiyalar haqida umumiy tushunchalar. Aksonometrik proyeksiya turlari: to'g'ri burchakli va qiyshiq burchakli aksonometrik o'zgarish koeffitsiyentlari tekis shakllari va geometrik jismlarning aksonometrik proyeksiyalarini tasvirlash. Aksonometrik o'qni chizish.	4	2	2
6	Ko'rinishlar. Asosiy va qo'shimcha ko'rinishlar.	Mashinasozlik chizmasi va uning vazifasi. Hozirgi zamon chizmalari. Asosiy va yordamchi ishlab chiqarish buyumlarining ish chizmalari ularning turlari va vazifasi. Ko'rinishlarning vazifalari. Asosiy ko'rinishlarning joylashishi, qo'shimcha ko'rinishlar ularning joylanishi va belgilanishi.	4	2	2
7	Qirqim va uning turlari. Oddiy qirqimlar.	Qirqim haqida tushuncha. Qirqimning vazifasi, belgilanishi, mazmun va mohiyati. Qirqim berish qonun-qoidalari. Qirqim turlari. Oddiy va murakkab qirqimlar haqida tushuncha. Mahalliy qirqimlar, og'ma qirqim haqida tushuncha. Oddiy qirqim turlari: gorizonta, frontal, profil qirqimlar.	4	2	2
8	Murakkab qirqimlar.	Murakkab qirqim siniq va pog'onali qirqimga bo'linadi. Oddiy va murakkab qirqimning bir-biridan farqi. Mahalliy qirqimlar va ularning vazifasi. Og'ma qirqimning vazifasi. Qirqim berilgan yuzani 45* qiyalikda shtrixlash.	4	2	2
9	Kesim va uning turlari. Chizmalardagi shartlilik va soddalashtirishlar.	Kesim haqida tushuncha, kesimning mazmun mohiyati va vazifasi. Kesim turlari: ustama va chetga chiqarilgan kesim haqida tushuncha. Ustama va chetga chiqarilgan kesimlarning chizmada tasvirlanishi va belgilanishi. Kesimning qirqimdan farqi. Chizmalardagi shartlilik va soddalashtirishlar haqida. Detal simmetrik ko'rinishga ega bo'lsa qirqim va kesimlarni qisman tasvirlash. Uzun predmetlarni uzib tasvirlash.	4	2	2
10	Ajraladigan va ajralmaydigan birikmalar.	Turli mashina va mexanizmlarida uchraydigan tipik birikmalar haqida tushuncha. Detallar birikmalarining turlari: ajraladigan va ajralmaydigan birikmalar.	4	2	2

		<p>Ajraladigan birikmalar haqida tushuncha va ularga misollar. Ajralmaydigan birikmalar haqida tushuncha va ularga misollar. Standart detallar haqida tushuncha.</p> <p>Shponkali va shlitsali birikmalar hamda ularning vazifalari. Shponkali va shlitsali birikmalarning turli xillarini tasvirlanishi. Shtiftlar bilan biriktirish. Parchin mixli birikmalar va ularning vazifasi. Parchin mixli birikmalarni tasvirlash. Parchin mixli birikmalarni tasvirlash birikmalarni tasvirlashda yig'ish chizmasida qo'llaniladigan soddalashtirishlar. Payvand birikmalar va ularning vazifasi. Payvand choqlarining asosiy turlari, ularning chizmada shartli tasvirlashi, belgilanishi. O'zaro payvandlab biriktirilgan detallardan iborat uzal va buyumlarning tasvirlashi. Payvand uzallarni tasvirlashda yig'ish chizmasida qo'llaniladigan soddalashtirishlar. Kavsharlab va yelimlab biriktirish. Asl nusxalarni tayyorlash.</p>			
11	Rezbali biriktirish detallari.	<p>Silindr sirtidagi vint chiziq. Xar xil profilli rezbalar. Rezbani tasvirlash. O'yiqlar, faskalar. Standart va maxsus rezbalarni belgilanishi. Standartmas profilli rezbalarni tasvirlash va belgilash. Rezbali biriktirish detallarning xaqiqiy o'lchamlari bo'yicha GOSTga muvofiq tasvirlash. Rezbaning tashqi diametriga qarab shartli munosabatlarga asosan rezbali mahkamlash detallarni yig'ish chizmasida tasvirlash. Rezbali biriktirish detallarni tasvirlashda yig'ish chizmasida qo'llanuvchi soddalashtirishlar. Boltli, shpilkali va vintli birikmalarni tasvirlash, truba rezbalarining xususiyatlari, fittinglar qo'llangan trubalarning xususiyatlari. Rezbali birikmalarni tasvirlash. Ichki va tashqi rezbalarining belgilanishi.</p>	4	2	2
12	Eskiz va uni tuzish bosqichlari.	<p>Eskizning vazifasi va uning ish chizmasidan farqi. Detal eskizini chizish tartibi va izchilligi, o'lchamlarni qo'yishi. O'lchov asboblari va detallarni o'lchash usullari. Chiziqli qiyaliklar. Markaz teshiklar, o'yoq va faskalar. Yoyilmada bukish chiziqlarini belgilash. Yuzalarning tozalik belgisini va ishlov berish hamda termik ishlanganligini chizmada qo'yish. Detallar tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallarni chizmalarda belgilash.</p>	4	2	2

13	Detallarning ish chizmalarini chizish.	Ish chizmalariga oid texnikaviy talablar. Ish chizmalari: tarifi, vazifasi va ularga qo'yiladigan talablar. Detalning berilgan eskiziga muvofiq ish chizmasini chizish tartibi. Masshtab tanlash, format va komponovkalash.	4	2	2
14	Buyumning yig'ish chizmalarini tuzish va o'qish	Yig'ish chizmasi uning vazifasi, ishlab chiqarishdagi o'rni. Yig'ish chizmasi uchun detal eskizlar chizish. Yig'ish sxemasini tuzish. Nomerlash. Yig'ish va qismlarga ajratish tartibi. Yig'ma birligi detallari eskizlarni asliga qarab chizish. Tutashuvchi o'lchamlarni bog'lash. Eskizda yuzalarining tozalik hamda termik ishlov berish ishlov belgilarini standartga muvofiq qo'yish. Detallarni birlashtirish xarakteri va detallarning chizmalari qo'yim hamda o'tkazish belgilarini standartga muvofiq chizish. Yig'ish chizmasini eskizga asosan chizish tartibi. Proyeksiyalar soni va masshtabini tanlash. Format tanlash. Yig'ish chizmasiga o'lchamlar qo'yish. Qirqimlarda shtrixlash. Salnik qurilmasi, dumalash podshipnigi, prujina, metallmas, keramika va boshqalarni tasvirlash. Buyum qismlarini chetki yoqi o'rta vaziyatida tasvirlash. Tutashuvchi detallarni tasvirlashdagi konstruktiv xususiyatlar. Yig'ish chizmasiga standartga muvofiq o'lchamlar qo'yish. Pozitsiya nomerlarini qo'yish, belgilash. Spetsifikatsiya tuzish. Spetsifikatsiyada standart detallarni belgilash.	4	2	2
15	Sxema va uning turlari	Sxema turlari va vazifalari. Kinematik va elektr sxemalar. Sxemalar tuzish tartibi. Sxemalarni chizish va ularni soddalashtirish usullari. Sxema tuzishda qo'llaniladigan shartli belgilar.	4	2	2
Jami			60	30	30

O'quvchilar bilimni baholash mezonlari

O'quvchilarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

o'quvchi mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

o'quvchi mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

o'quvchi olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

o'quvchi fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Harf tizimida baholash	Ballarning raqamli ekvivalenti	Foiz ko'rsatkichi	An'anaviy baholash
A	4,0	95-100	5 (A'lo)
A–	3,67	90-94	
B+	3,33	85-89	4 (Yaxshi)
B	3,0	80-84	
B–	2,67	75-79	
C+	2,33	70-74	
C	2,0	65-69	3 (Qoniqarli)
C–	1,67	60-64	
D+	1.33	55-59	2 (Qoniqarsiz)
D	1,0	50-54	

O'qitish natijalarini baholash

O'qitish natijalari	Baholash indikatorlari
Chizmalarni chizish texnikasiga ega bo'lish ko'nikmalariga ega bo'lishi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. chizmalarni Davlat standartlari (*DS va KHUM) talablariga muvofiq bajarish to'g'risida tushunchani bilishi; 2. Geometrik sirtlarning proyeksiyalarini tasavvur qila bilishi; 3. Detallarni aksonometrik proyeksiyalarini yasashi; 4. Detallarni ichki qismlarini qirqim va kesimlarda ko'rsatib berish tamoyillarini bilishi; 5. Ajraladigan va ajralmaydigan birikmalarni chizishi; 6. Mutaxassislik chizmalarni chizish va ularni o'qiy olishi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
PROFESSIONAL TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

O‘RTA MAXSUS KASBIY TA‘LIMINING
NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi	XIZMATLAR		
Ta‘lim sohasi	Xizmat ko‘rsatish sohasi		
Ta‘lim yo‘nalishi	Logistika		
Mutaxassislik nomi	Tashishlarni tashkil etish va transportni boshqarish (turlari bo‘yicha)		
Mutaxassislik kodi	51010504		
Kvalifikatsiya(lar) nomi:	1. Texnik; 2. «B» yoki «BC» toifali avtomobil haydovchi (maxsus avtotransport haydovchisi)		
Modul nomi	Mahsulot sifatini standartlashtirish va metrologiya asoslari		
Modul kodi	5PM0497		
Modulga ajratilgan soat	Jami yuklama: 60 soat	Auditoriya mashg‘uloti: 30 soat	Mustaqil ta‘lim: 30 soat
ECTS-kreditlar miqdori	2		
Modul turi (<i>majburiy/tanlov</i>)	Tanlov		
Ta‘lim tili	Guruhga belgilangan o‘qitish tili asosida		

Modul o'quv dasturi umumiy talablari

Modul to'liq nomi	Mahsulot sifatini standartlashtirish va metrologiya asoslari
